O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI YOSHLAR ISHLARI AGENTLIGI DIREKTORINING
BUYRUG‘I

2024 y. “19” aprel № 01-10/71

Yoshlar ishlari agentligi hududiy bo‘linmalari nizomlarini tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasining Prezidentining 2024-yil 20-yanvardagi PF–18-son “Yoshlar siyosati va sport sohasida davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoniga muvofiq

B U Y U R A M A N:

1. Quyidagilar:

O‘zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligining Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar yoshlar ishlari boshqarmalari to‘g‘risida nizomlar 1–14-ilovalarga;

O‘zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligining tuman (shahar) yoshlar ishlari bo‘limlari to‘g‘risida namunaviy nizom 15-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. Yoshlar ishlari agentligi:

a) Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar yoshlar ishlari boshqarmalari boshliqlariga:

besh kun muddatda ushbu buyruq bilan tasdiqlangan hududiy boshqarma nizomini davlat xizmatlari markazida davlat ro‘yxatidan o‘tkazish va 15-ilovaga muvofiq tuman (shahar) yoshlar ishlari bo‘limlari to‘g‘risida nizomlarni tasdiqlash;

o‘z faoliyatini tashkil etish va amalga oshirishda tegishli hududiy boshqarma to‘g‘risidagi nizom talablariga qat’iy rioya etish;

b) tuman (shahar) yoshlar ishlari bo‘limlari boshliqlariga:

bir hafta muddatda hududiy boshqarma boshlig‘i tomonidan tasdiqlangan tuman (shahar) yoshlar ishlari bo‘limi nizomini davlat xizmatlari markazida davlat ro‘yxatidan o‘tkazish;

o‘z faoliyatini tashkil etish va amalga oshirishda tegishli tuman (shahar) yoshlar ishlari bo‘limi to‘g‘risidagi nizom talablariga qat’iy rioya etish;

d) Yuridik bo‘limi (A.Xalikov)ga Inson resurslarini rivojlantirish bo‘limi (S.Xamdamov) bilan birgalikda o‘n kun muddatda ushbu bandda belgilangan vazifalar ijrosi yuzasidan Agentlik hududiy boshqarmalari va tuman (shahar) bo‘limlaridan ma’lumot olib, Agentlik direktoriga kiritish vazifalari yuklansin.

3. O‘zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi direktorining 2020-yil 30-oktabrdagi 01/10-37-son buyrug‘i o‘z kuchini yo‘qotgan deb topilsin.

4. Ushbu buyruq ijrosini nazorat qilish Agentlik direktorining birinchi o‘rinbosari D.Kattaxanova zimmasiga yuklansin.

Direktor **A. Sa’dullayev**

O‘zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari
agentligi direktorining 2024-yil
19-apreldagi 01/10-71-son buyrug‘iga
1-ilova

O‘zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligining Qoraqalpog‘iston Respublikasi Yoshlar ishlari boshqarmasi to‘g‘risida NIZOM

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Mazkur nizom Qoraqalpog‘iston Respublikasi Yoshlar ishlari boshqarmasining (keyingi o‘rinlarda – boshqarma) faoliyatini tashkil etish, boshqarmaning asosiy vazifalari va funksiyalari, huquqlari va majburiyatlari, tashkiliy tuzilmasi va boshqaruvi, boshqarma boshlig‘ining funksional vazifalari, javobgarligi, boshqarma faoliyatini baholash, hisoboti, xodimlarni moddiy rag‘batlantirish masalalarini tartibga soladi.

2. Boshqarma O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatini tubdan isloh qilish va yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2020-yil 30-iyundagi PF–6017-son Farmoni, “Yoshlar siyosati va sport sohasida davlat boshqaruv tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2024-yil 20-yanvardagi PF–18-son Farmoni, “O‘zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida” 2020-yil 30-iyundagi PQ–4768-son qarori hamda Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 11-sentabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi to‘g‘risida nizomni tasdiqlash haqida”gi 550-son qarori, shuningdek, boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlar va mazkur Nizomga asosan tashkil etilgan.

3. Boshqarma – O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 25-yanvardagi PF–14-son Farmoniga 2-ilovaga muvofiq respublika ijro etuvchi hokimiyat organ hisoblangan O‘zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi (keyingi o‘rinlarda – Agentlik deb yuritiladi) tashkiliy tuzilmasiga kiradi, o‘z faoliyati bo‘yicha Agentlikka bo‘ysunadi va hisobdor hisoblanadi.

4. Boshqarma o‘z faoliyatini O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlari, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari, farmoyishlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlari, boshqa qonunchilik hujjatlari, Agentlikning normativ-huquqiy hujjatlariga, shuningdek ushbu Nizomga asosan amalga oshiradi.

5. Boshqarma Agentlikning yuridik shaxs maqomiga ega bo‘lgan mustaqil tuzilmasi bo‘lib, operativ boshqaruvida o‘ziga xos maxsus mol-mulkka ega va ushbu mol-mulk bo‘yicha o‘z majburiyatlariga muvofiq javob beradi, o‘z nomidan mol-mulk sotib olishi va mulkiy hamda nomulkiy huquqlarni amalga oshirish, zimmasiga majburiyat olish huquqiga ega, sudda da’vogar va javobgar sifatida qatnashadi.

Boshqarma o‘z balansiga, g‘aznachilikda ochilgan hisob raqamlariga, O‘zbekiston Respublikasining Davlat gerbi tasviri tushirilgan va o‘z nomi yozilgan muhrga hamda o‘z faoliyati uchun zarur boshqa belgilar va rekvizitlarga ega bo‘ladi.

Boshqarmaning nizomi va tashkiliy tuzilmasi Agentlik direktori tomonidan tasdiqlanadi.

6. Boshqarmaning rasmiy nomi:

davlat tilida – Qoraqalpog‘iston Respublikasi Yoshlar ishlari boshqarmasi;

rus tilida – Управление по делам молодежи Республики Каракалпакстан;

ingliz tilida – Department of Youth affairs of the Republic of Karakalpakstan;

7. Boshqarmaning yuridik manzili (pochta manzili): Nukus qal‘asi, Qoraqalpog‘iston ko‘chasi 23-uy.

2-bob. Boshqarmaning tuzilmasi

8. Boshqarma tizimiga yuridik shaxs tashkil etgan holda faoliyat yurituvchi Qoraqalpog‘iston Respublikasidagi tuman (shahar) yoshlar ishlari bo‘limlari (keyingi o‘rinlarda – bo‘limlar) kiradi.

3-bob. Boshqarmaning asosiy vazifalari va funksiyalari

9. Quyidagilar boshqarmaning asosiy vazifalari hisoblanadi:

yoshlar bilan bog‘liq soha va yo‘nalishlarda yagona davlat siyosatini, strategik yo‘nalishlar va davlat dasturlarini ishlab chiqish hamda amalga oshirishda ishtirok etish;

mahallalarda yoshlar bilan ishlashning yangicha boshqaruv mexanizmlarini joriy etish, ular bilan ishlashning vertikal tizimini yaratish, yoshlar muammolarini bevosita mahallalarda hal etish bo‘yicha belgilangan vazifalarni samarali amalga oshirish;

yoshlarni Vatanga sadoqat, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash, ularning sog‘lig‘iga zarar yetkazuvchi axborotdan himoya qilish, o‘sib kelayotgan yosh avlodni ilm-fan va innovatsiyalarga keng jalb etish;

yoshlarning huquq va erkinliklari, qonuniy manfaatlarini himoya qilish, yoshlar o‘rtasida huquqbuzarliklar va jinoyatchilik profilaktikasiga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirishda ishtirok etish;

yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirish jarayonida nodavlat notijorat tashkilotlar va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari bilan hamkorlik qilish;

yoshlarning intellektual rivojlanishga bo‘lgan intilishlarini qo‘llab-quvvatlash va bu sohadagi ishlarni muvofiqlashtirib borish;

yoshlarni kichik biznes va xususiy tadbirkorlikka keng jalb etish, zamonaviy kasb-hunar, raqamli iqtisodiyot ko‘nikmalarini puxta egallashlari uchun qo‘shimcha shart-sharoitlar yaratish, ularni ish bilan ta’minlash jarayonlariga ko‘maklashish;

yoshlar ishlari sohasida xalqaro hamkorlikni yo‘lga qo‘yish va mustahkamlash, xalqaro shartnomalar tayyorlash, tuzish va bajarish haqida takliflar taqdim etish;

normativ-huquqiy hujjatlar va texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlarning ishlab chiqilishida ishtirok etish.

10. Boshqarma o‘ziga yuklangan vazifalarga muvofiq quyidagi funksiyalarni amalga oshiradi:

a) yoshlar bilan bog‘liq soha va yo‘nalishlarda yagona davlat siyosatini, strategik yo‘nalishlar va davlat dasturlarini ishlab chiqish hamda amalga oshirishda ishtirok etish sohasida:

O‘zbekiston Respublikasining yoshlarga oid yagona davlat siyosati asoslarini, mamlakatda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarga muvofiq o‘rta va uzoq muddatga mo‘ljallangan vazifalarni ishlab chiqishda ishtirok etadi;

yoshlarga oid davlat siyosatining ijrosini ta’minlaydi, davlat organlari va tashkilotlarining ushbu yo‘nalishdagi faoliyatini muvofiqlashtiradi hamda hamkorligini ta’minlaydi;

yoshlar bilan bog‘liq soha va yo‘nalishlarda amalga oshirilayotgan davlat dasturlari hamda loyihalarning samarali ijro etilishi monitoringini olib boradi;

demokratik islohotlarni chuqurlashtirish, fuqarolik jamiyatini barpo etish jarayonlarida yoshlar rolini oshirish ishlarini tashkil etadi;

b) mahallalarda yoshlar bilan ishlashning yangicha boshqaruv mexanizmlarini joriy etish, ular bilan ishlashning vertikal tizimini yaratish, yoshlar muammolarini bevosita mahallalarda hal etish bo‘yicha belgilangan vazifalarni samarali amalga oshirish sohasida:

“Yoshlar balansi”ni shakllantirish, yoshlar to‘g‘risidagi zarur ma’lumotlarni “Yoshlar daftari” va “Yoshlar portali” elektron platformalariga kiritib borilishi, ular bilan samarali ish tashkil qilinishini ta’minlaydi;

mahallalarda yoshlarning bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etish, milliy xalq o‘yinlari va sport turlarini yoshlar orasida ommalashtirish, Besh muhim tashabbus loyihalari, yoshlar festivallari va boshqa madaniy-ma’rifiy tadbirlarni amalga oshirishni ta’minlaydi;

yoshlarning ijtimoiy faolligini oshirish, iqtidori, iste’dodi va tashabbuslarini rag‘batlantirish hamda hayotda o‘z o‘rnini topishlariga ko‘maklashish bilan bog‘liq chora-tadbirlarni amalga oshiradi;

yoshlarning bo‘sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish maqsadida ularning fikr-mulohazalarini o‘rganishga qaratilgan ijtimoiy so‘rovlar o‘tkazadi va natijasi bo‘yicha tegishli tadbirlarni belgilaydi;

d) yoshlarni Vatanga sadoqat, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash, ularning sog‘lig‘iga zarar yetkazuvchi axborotdan himoya

qilish, o‘sib kelayotgan yosh avlodni ilm-fan va innovatsiyalarga keng jalb etish sohasida:

yosh avlodni Vatan manfaati yo‘lida birlashtirish, mamlakatimiz tarixini va milliy qadriyatlarni hurmat qilish ruhida tarbiyalash, diniy bag‘rikenglik va insoniylik tuyg‘ularini shakllantirish choralarini ko‘radi;

o‘sib kelayotgan yosh avlodni ma’nan va jismonan barkamol voyaga yetkazish, ularni sog‘lom turmush tarziga jalb etish bo‘yicha keng ko‘lamli tashkiliy, targ‘ibot-tashviqot ishlarini amalga oshiradi;

yoshlarning ilm-fanni egallashga bo‘lgan intilishlarini qo‘llab-quvvatlash, innovatsion faoliyat bilan shug‘ullanishlari uchun shart-sharoitlar yaratish bo‘yicha zarur choralar ko‘radi;

yoshlarning axborot borasidagi xavfsizligi kafolatlarini yaratish, axborot vositasida qonunga xilof ravishda yoshlarga ruhiy ta’sir ko‘rsatilishidan hamda ularning sog‘lig‘iga zarar yetkazuvchi axborotdan himoya qilishda zarur tadbirlarni amalga oshiradi;

yoshlar ongida milliy g‘ururni shakllantirish hamda mustahkamlashga xizmat qiladigan publitsistik, chizma, foto va video materiallarni tayyorlaydi hamda targ‘ib qilish choralarini ko‘radi, xorijiy ommaviy axborot vositalarida turli materiallar joylashtirish orqali mamlakatimiz ijobiy imijini shakllantiradi;

bolalarning har tomonlama, uyg‘un rivojlanishiga hamda milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalanishiga ko‘maklashuvchi axborotdan erkin foydalanish, ularning sog‘lig‘iga zarar yetkazuvchi axborotdan himoya qilishni ta’minlashga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshiradi va ushbu yo‘nalishda yakka tartibdagi profilaktika ishlarini amalga oshirishda ishtirok etadi;

bolalarning axborotga oid va huquqiy madaniyatini yuksaltirishga, shuningdek, ma’naviy-axloqiy tarbiyasiga doir faoliyatda ishtirok etadi;

bolalarni ularning sog‘lig‘iga zarar yetkazuvchi axborotdan himoya qilishga doir faoliyatni amalga oshiruvchi hamda ushbu faoliyatda ishtirok etuvchi boshqa organlar va tashkilotlar bilan hamkorlik qiladi;

e) yoshlarning huquq va erkinliklari, qonuniy manfaatlarini himoya qilish, yoshlar o‘rtasida huquqbuzarliklar va jinoyatchilik profilaktikasiga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirishda ishtirok etish sohasida:

yoshlarning huquqlari va erkinliklari buzilishi to‘g‘risidagi murojaatlarini ko‘rib chiqadi, ularning buzilgan huquqlarini tiklash bo‘yicha qonunchilik hujjatlariga muvofiq choralar ko‘radi;

yoshlarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, ularning o‘z iqtidor va iste’dodlarini to‘laqonli namoyon etishlari hamda imkoniyatlaridan to‘liq foydalanishlariga to‘sqinlik qiluvchi omillarni aniqlash va bartaraf etish, yoshlar o‘rtasida huquqbuzarlik va jinoyatchilikning oldini olishda, shu jumladan, huquqbuzarliklarning maxsus profilaktikasiga, yoshlar o‘rtasida huquqbuzarlik va jinoyatchilikni keskin kamaytirishga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirishda ishtirok etadi;

yoshlarning huquqiy madaniyatini oshirishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlarni ishlab chiqadi va amalga oshiradi, shu jumladan yoshlar o‘rtasida jamiyatda huquqiy ongni yuksaltirishga va qonuniylikni mustahkamlashga, shuningdek korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirishga qaratilgan huquqiy targ‘ibot bo‘yicha faoliyatda ishtirok etadi;

yoshlar o‘rtasida huquqbuzarliklar sodir etilishiga imkon berayotgan sabablar va shart-sharoitlarni aniqlashda hamda bartaraf etishda ko‘maklashadi;

f) yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirish jarayonida nodavlat notijorat tashkilotlar va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari bilan hamkorlik qilish sohasida:

yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirishga qaratilgan davlat dasturlari hamda loyihalarni ishlab chiqish va amalga oshirishda nodavlat notijorat tashkilotlar hamda fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari bilan hamkorlik o‘rnatadi;

nodavlat notijorat tashkilotlar va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlariga yoshlarga oid dasturlar va loyihalarni amalga oshirishda g‘oyaviy-metodik, ilmiy-amaliy va tashkiliy-huquqiy jihatdan ko‘maklashadi;

nodavlat notijorat tashkilotlar va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari tomonidan yoshlarga oid muammoli masalalar, shu jumladan, ularni hal etish bo‘yicha ishlab chiqilgan takliflarni o‘rganadi va tahlillar asosida tegishli muammolarni bartaraf etish bo‘yicha amaliy choralar ko‘radi;

yoshlar tadbirkorligini rivojlantirish, ularning bandligini ta’minlash, axborot-kommunikatsiya, innovatsion texnologiyalarni joriy etish, madaniyat, san’at, kitobxonlikni rivojlantirish, ekologiya va boshqa sohalarda nodavlat notijorat tashkilotlar bilan hamkorlikda loyihalarni ishlab chiqadi va amalga oshiradi;

g) yoshlarning intellektual rivojlanishga bo‘lgan intilishlarini qo‘llab-quvvatlash va bu sohadagi ishlarni muvofiqlashtirib borish sohasida:

yoshlarning intellektual jihatdan kamol topishini va ma’naviy rivojlanishini ta’minlash bilan bog‘liq chora-tadbirlarni amalga oshiradi;

yoshlar o‘rtasida intellektual o‘yinlar, notiqlik musobaqalari, chet tillarda munozara va uchrashuvlar o‘tkazadi;

yoshlar o‘rtasida intellektual o‘yinlarni rivojlantirish hamda ommalashtirishga qaratilgan loyihalarni qo‘llab-quvvatlash choralarini ko‘radi;

intellektual o‘yinlar va ulardagi iqtidorli ishtirokchilar haqidagi ma’lumotlarning elektron platformaga kiritilishini ta’minlaydi va intellektual o‘yinlar natijalarini ommaviy axborot vositalarida yoritib boradi;

h) yoshlarni kichik biznes va xususiy tadbirkorlikka keng jalb etish, zamonaviy kasb-hunar, raqamli iqtisodiyot ko‘nikmalarini puxta egallashlari uchun qo‘shimcha shart-sharoitlar yaratish, ularni ish bilan ta’minlash jarayonlariga ko‘maklashish sohasida:

yoshlarni tadbirkorlikka yo‘naltirish, kasb-hunarga o‘qitish va ularning bandligini ta’minlash, shuningdek, raqamli iqtisodiyot ko‘nikmalarini puxta

egallashi uchun qo‘shimcha shart-sharoitlar yaratish bo‘yicha chora-tadbirlarni belgilaydi va amalga oshiradi;

yoshlar uchun yangi ish o‘rinlarini yaratish, yoshlar tadbirkorligini rivojlantirish borasidagi chora-tadbirlarni monitoring qilib boradi, ularning samaradorligini oshirish bo‘yicha takliflar tayyorlaydi;

yoshlar tadbirkorligi sohasida forum, tadbir va yarmarkalar o‘tkazadi, yosh tadbirkorlarning xalqaro forum va yarmarkalardagi ishtirokini ta’minlaydi, joylardagi ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish tashkilotlariga biznes sayohatlar tashkil etadi;

tadbirkorlik yo‘nalishlari bo‘yicha biznesni yo‘lga qo‘yishdan daromad olishgacha bo‘lgan masalalarni o‘rgatishga qaratilgan masofaviy o‘quv mashg‘ulotlari o‘tkazilishi va qo‘llanmalar yaratilishini ta’minlaydi;

yoshlarning tadbirkorlik faoliyatida yuzaga kelayotgan muammolarni, yoshlar ishsizligi sabablarini o‘rganadi va ularni bartaraf etish bo‘yicha takliflar ishlab chiqadi;

yoshlar, ayniqsa, yosh oilalarni tadbirkorlik va hunarmandchilikka jalb etish, yoshlarning o‘zini o‘zi band qilish, jumladan, frilanserlik faoliyatini rivojlantirish ishlarini amalga oshiradi;

i) yoshlar ishlari sohasida xalqaro hamkorlikni yo‘lga qo‘yish va mustahkamlash, xalqaro shartnomalar tayyorlash, tuzish va bajarish haqida takliflar taqdim etish sohasida:

yoshlar o‘rtasida xalqaro intellektual, sport, madaniy va boshqa sohalardagi aloqalarni mustahkamlash, bu borada konferensiya, ko‘rgazmalar, ijodiy safarlar tashkil etish, xalqaro va respublika miqyosida o‘tkaziladigan tanlovlar, festivallar va boshqa tadbirlarda iqtidorli va iste’dodli yoshlar ishtirokini ta’minlashga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshiradi;

ilg‘or xalqaro tajriba asosida O‘zbekistonda yoshlar siyosati samaradorligini baholash va mavjud muammolarni bartaraf etishga qaratilgan tizimli ishlarni amalga oshiradi;

xorijda mehnat qilayotgan va tahsil olayotgan yoshlar bilan muloqotlar olib boradi, ularning huquq va erkinliklarini ta’minlashga qaratilgan tizimli ishlarni qo‘llab-quvvatlash maqsadida takliflar tayyorlaydi hamda bu borada vakolatli organlar bilan hamkorlik qiladi;

j) normativ-huquqiy hujjatlar va texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlarning ishlab chiqilishi va tasdiqlanishini tashkil etish sohasida:

ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturlari va normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini ishlab chiqish, tegishli takliflar va loyihalarni tayyorlashda ishtirok etadi, shuningdek ularni ko‘rib chiqish uchun vakolatli davlat organlariga kiritadi;

ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturlari va normativ-huquqiy hujjatlarning ro‘yobga chiqarilishi ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirishda ishtirok

etadi, uning yakunlari bo‘yicha takliflar tayyorlaydi hamda ularni vakolatli davlat organlariga kiritadi.

4-bob. Boshqarmaning huquqlari

11. Boshqarma quyidagi huquqlarga ega:

yoshlarga oid qonunchilik hujjatlarining ijro etilishini, shu jumladan, hududlarda yoshlarning huquq va qonuniy manfaatlariga rioya etilishini o‘rganish va tahlil qilish;

o‘z vakolatlariga kiruvchi masalalar yuzasidan davlat organlari va tashkilotlarining hududiy bo‘linmalaridan statistik, tahliliy materiallar, xulosalar va boshqa ma’lumotlarni so‘rash va olish;

o‘z vakolatlari doirasida yoshlar, jumladan, tarbiya muassasalarini tamomlagan yetim va ota-onasi qaramog‘idan mahrum bo‘lgan yoshlarning huquqlarini himoya qilish hamda yoshlar to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlari buzilishi holatlarini bartaraf etish yuzasidan tashkiliy-huquqiy shaklidan qat’i nazar tashkilotlar, muassasalar va korxonalarga bajarilishi majburiy bo‘lgan ko‘rsatmalar kiritish;

davlat organlari va tashkilotlari rahbarlariga yoshlar to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlari buzilishi, ularni keltirib chiqaruvchi sabab va sharoitlarni bartaraf etish bo‘yicha ko‘rib chiqilishi majburiy bo‘lgan taqdimnomalar kiritish;

o‘ziga tegishli mol-mulkni qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda tasarruf etish;

davlat organlari va tashkilotlari hududiy bo‘linmalarining yoshlar masalalari bilan bog‘liq majlislari, yig‘ilishlari, hay’atlarida ishtirok etish;

axborot-tahliliy materiallarni tayyorlash va dasturiy hujjatlarni ishlab chiqish uchun davlat boshqaruvi organlari va xo‘jalik birlashmalarining hududiy bo‘limlari, shuningdek, ilmiy tashkilotlarning yuqori malakali mutaxassislarini jalb qilish.

5-bob. Boshqarma boshqaruvi

12. Boshqarmani boshqarish boshliq tomonidan amalga oshiriladi. Boshliq Agentlik direktori tomonidan lavozimiga tayinlanadi va lavozimidan ozod etiladi.

13. Boshqarma boshlig‘ining o‘rinbosarini lavozimiga tayinlash, lavozimidan ozod etish, shu jumladan, Boshqarma boshlig‘i o‘rinbosari vazifasini vaqtincha bajaruvchi etib tayinlash Agentlik direktori bilan kelishilgan holda tegishli hududiy boshqarma boshlig‘ining buyrug‘i bilan amalga oshiriladi.

Boshqarma boshlig‘i o‘rinbosari boshqarma boshlig‘ining buyruqlarini o‘z vaqtida va sifatli bajarilishini ta’minlaydi hamda o‘ziga yuklatilgan topshiriq va vazifalarni bajarish uchun shaxsan javobgardir.

Boshqarma boshlig‘i bo‘lmagan vaqtda uning vakolatlari boshliq o‘rinbosari tomonidan amalga oshiriladi.

Boshqarma xodimlari qonunchilikda belgilangan tartibda boshqarma boshlig‘i tomonidan lavozimga tayinlanadi va lavozimidan ozod etiladi.

Bunda, boshqarmaning boshqaruv xodimlarini lavozimiga tayinlash, lavozimidan ozod etish, shu jumladan, vazifasini vaqtincha bajaruvchi etib tayinlash Agentlik markaziy apparati bilan kelishilgan holda tegishli hududiy boshqarma boshlig‘ining buyrug‘i bilan amalga oshiriladi.

Ushbu bandda belgilangan tartib buzilgan holda chiqarilgan buyruq Agentlik direktori tomonidan bekor qilinadi, ushbu tartibni buzgan xodimlar, shu jumladan, rahbar xodimlar intizomiy javobgarlikka tortiladi.

14. Quyidagilar boshqarma boshlig‘ining asosiy funksional majburiyatlari hisoblanadi:

boshqarma faoliyatiga umumiy rahbarlik qilish, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari, farmoyishlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari, farmoyishlari, Agentlik Hay’ati va rahbariyatining normativ-huquqiy hujjatlari, topshiriqlari va ko‘rsatmalari bilan boshqarmaga yuklangan vazifalar va funksiyalar bajarilishini tashkil etish;

boshqarma va bo‘limlar faoliyati bilan bog‘liq prognoz ko‘rsatkichlarga erishishni so‘zsiz ta’minlash bo‘yicha amaliy chora-tadbirlarni ishlab chiqish va qabul qilish;

boshqarma va bo‘limlar faoliyatini nazorat qilish va muvofiqlashtirish;

boshqarma va bo‘limlar xodimlari tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari, farmoyishlari va topshiriqlari ijrosi ta’minlanishi, ijro intizomi mustahkamlanishi bo‘yicha kompleks amaliy chora-tadbirlar amalga oshirilishi, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 10-fevraldagi “Qonunchilik hujjatlari ijrosini samarali tashkil etishda davlat boshqaruvi organlari va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari rahbarlarining shaxsiy javobgarligini kuchaytirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF–6166-son Farmoni, 2021-yil 31-maydagi “Ijro.gov.uz” ijro intizomi idoralararo yagona elektron tizimi samarali faoliyat ko‘rsatishini ta’minlashga qaratilgan qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ–5132-son qaroriga muvofiq topshiriqlarning o‘z vaqtida va sifatli bajarilishi uchun xodimlarning shaxsiy mas’uliyatini oshirish choralarini ko‘rish;

boshqarma vakolatiga kiradigan masalalar bo‘yicha buyruqlar, farmoyishlar, ko‘rsatmalar chiqarish, zarur bo‘lganda boshqa vazirliklar va idoralar bilan birgalikda tegishli qarorlar qabul qilish;

boshqarma faoliyati sohasiga kiradigan masalalar yuzasidan mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari va kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo‘yicha sektorlar bilan hamkorlik qilish;

boshqarmada kadrlarni tanlash va joy-joyiga qo‘yish, ularning professionalligi, o‘z ishini bilishi, yuksak darajadagi ishchanlik va ma’naviy-axloqiy

fazilatlarga ega bo‘lishini ta’minlash, ularning kasbiy malakasini oshirish, kadrlar zaxirasini shakllantirish choralarini ko‘rish;

boshqarma xodimlari, hududiy boshqarmalar va idoraviy mansub tashkilotlar rahbarlari bilan qonunchilikda belgilangan tartibda mehnat shartnomalarini tuzish va bekor qilish;

xodimlarning vakolatlarini belgilash, ular o‘rtasida majburiyatlarni taqsimlash, boshqarmalarni boshqarishda mas’ul xodimlarning javobgarligini belgilash;

boshqarma faoliyatini rejalashtirishni tashkil etish, har choraklik ish rejalarini tasdiqlash, ularning bajarilishi nazoratini ta’minlash;

boshqarma xodimlarini rag‘batlantirish va intizomiy javobgarlikka tortish masalalarini hal qilish, shu jumladan, ular egallab turgan lavozimda qolishi maqsadga muvofiqligiga doir masalalarni ko‘rib chiqish, ularning shaxsiy mas’uliyatini oshirish bo‘yicha muntazam choralar ko‘rish;

boshqarma xodimlarining odob-axloq qoidalari talablariga rioya qilishini ta’minlash;

“Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni talablariga muvofiq boshqarmada korrupsiya va boshqa huquqbuzarliklarning oldini olish choralarini ko‘rish, shuningdek, huquqni qo‘llash amaliyotini va qonunchilik hujjatlarini takomillashtirishga doir chora-tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirish orqali ularning sodir etilishiga ko‘maklashuvchi sabablar va shart-sharoitlarni aniqlash, tahlil qilish hamda bartaraf etish;

prognoz ko‘rsatkichlarning bajarilishini muntazam tahlil qilish hamda ushbu ko‘rsatkichlarga so‘zsiz erishishini ta’minlashga qaratilgan qo‘shimcha choralar ko‘rish bo‘yicha takliflarni Agentlikka kiritish;

boshqarma xodimlari faoliyatining samaradorligi va natijadorligini tizimli ravishda tanqidiy tahlil qilish, yig‘ilishlarda ularning shaxsiy hisobotlarini eshitish, ularning yakunlari bo‘yicha zarur chora-tadbirlarni amalga oshirish;

boshqarma xodimlari faoliyatiga oid masalalar bo‘yicha qonunchilik hujjatlarini takomillashtirish, shuningdek, davlat xizmatlari samaradorligi, sifatini oshirish va ulardan erkin foydalanish bo‘yicha takliflarni ishlab chiqish hamda ko‘rib chiqish uchun Agentlik rahbariyatiga kiritish;

boshqarma xodimlari faoliyatining samaradorligi va natijalarini tizimli ravishda tanqidiy tahlil qilish, Boshqarma yig‘ilishlarida ularning shaxsiy hisobotlarini eshitish, natijalar asosida zarur choralar ko‘rish;

jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarini ko‘rib chiqish, aholi bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri va ochiq muloqotni yo‘lga qo‘yish, muntazam ravishda shaxsan, shu jumladan, sayyor qabullar o‘tkazish;

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Xalq qabulxonalari bilan samarali hamkorlik qilish, ularning faoliyatida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash tizimini tubdan takomillashtirishga doir chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2016-yil 28-dekabrdagi

PF–4904-son Farmoniga muvofiq faol ishtirok etish, jismoniy va yuridik shaxslarning O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Virtual qabulxonasidan tushgan murojaatlarini o‘z vaqtida va to‘laqonli ko‘rib chiqish;

boshqarma xodimlariga ustamalar, qo‘shimcha to‘lovlar to‘lash, ularga moddiy yordam berish, ularni rag‘batlantirish va ularga intizomiy chora qo‘llash to‘g‘risida qaror qabul qilish, ularni davlat mukofotlari va idoraviy mukofotlar bilan taqdirlash to‘g‘risida Agentlikka takliflar kiritish;

davlat sirini yoki qonunchilik bilan qo‘riqlanadigan boshqa sirni tashkil etuvchi ma’lumotlarning himoya qilinishini ta’minlash;

mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlarida, sudlarda va tashkilotlarda Boshqarma manfaatlarini ifoda etish.

15. Boshqarma boshlig‘i:

yuklangan vazifa va funksiyalarning sifatli bajarilishini tashkil etish;

tegishli hududda yoshlarga oid qonunchilik hujjatlari, Agentlik direktori va uning o‘rinbosarlari topshiriqlari, shuningdek, o‘ziga yuklatilgan vazifa va funksiyalarning o‘z vaqtida va sifatli bajarilishi yuzasidan ta’sirchan nazoratni amalga oshirish;

tegishli hududda yoshlar sohasidagi respublikaning tegishli dasturlari va sohalarni rivojlantirish bo‘yicha dasturlari bilan o‘zaro bog‘liq holda hududlarni rivojlantirish dasturlarining belgilangan tartibda ishlab chiqilishini ta’minlash;

tegishli hududda yoshlarga oid davlat siyosatining holati to‘g‘risida Agentlikka haqqoniy tahliliy va boshqa axborotni taqdim etish yuzasidan javobgar bo‘ladi.

6-bob. Boshqarmaning faoliyatini moliyalashtirish

16. Quyidagilar Boshqarma faoliyatini moliyalashtirish manbalari hisoblanadi:

O‘zbekiston Respublikasi Davlat budjeti mablag‘lari;

jismoniy va yuridik shaxslarning homiylik xayriyalari;

xalqaro moliya institutlari, xorijiy tashkilotlarning grantlari doirasida tushadigan mablag‘lar;

qonunchilik hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa manbalar.

Boshqarma moliyaviy mablag‘laridan qonunchlik hujjatlarida belgilangan tartibda foydalaniladi.

17. Boshqarmaning budjetdan tashqari manbalar hisobiga moliyaviy ta’minlanadigan xarajatlar smetasi qonunchilikda belgilangan tartibda tasdiqlanadi.

18. Boshqarma mol-mulkini ijaraga berish O‘zbekiston Respublikasining davlat mulkini ijaraga berish to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladi.

Boshqarma O‘zbekiston Respublikasi qonunchilik hujjatlariga va ushbu nizom qoidalariga muvofiq ravishda shartnomalarni tuzish, majburiyatlar va boshqa shartlarni belgilash masalalarini mustaqil ravishda hal etadi.

19. Boshqarmaning moddiy-texnik bazasi unga tegishli bo‘lgan yer maydonlari, ma’muriy binolar, kommunikatsiya, transport vositalari va asbob-uskunalar, shuningdek, asosiy fondlar, aylanma mablag‘lar, moliyaviy resurslar va uning mustaqil balansida aks etgan boshqa moddiy qiymatliklardan iborat.

20. Boshqarmaning moddiy-texnik bazasini jihozlash va takomillashtirib borish Agentlik tomonidan belgilanadigan moddiy-texnik ta’minlashning normativlari asosida amalga oshiriladi.

21. Boshqarmaga bitta yengil avtomobil uchun limit ajratiladi.

22. Boshqarma xodimlari maqomi, mehnatga haq to‘lash, moddiy rag‘batlantirish va tibbiy xizmat ko‘rsatish shartlariga ko‘ra tegishlicha vazirliklar hududiy boshqarmalari xodimlariga tenglashtiriladi.

23. Boshqarma xodimlarining mehnatiga haq to‘lash shartlari, yillik ta’til da’vomiyligi, ijtimoiy himoya qilish choralari O‘zbekiston Respublikasining qonunchilik hujjatlari muvofiq amalga oshiriladi.

Boshqarma tomonidan amalga oshirilgan ishlarning natijadorligi, joriy qilgan, ishlab chiqqan yangilik va istiqbolli loyihalari, yuqori tashkilotlarning ko‘rsatma xatlari va topshiriqlariga muvofiq, ishdagi yutuqlari va mas’uliyatli vazifalarni bajarganligi uchun, shuningdek, jamoa shartnomalarida belgilangan tartibda qo‘shimcha rag‘batlantirish mumkin.

7-bob. Boshqarmaning buxgalteriya hisobi va hisoboti

24. Boshqarma O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligida belgilangan tartibda buxgalteriya hisobi va statistik hisobotlarni olib boradi.

Boshqarma bosh hisobchisi qonunchilikda belgilangan huquqlardan foydalanadi va majburiyatlarni bajaradi.

Boshqarma bosh hisobchisi to‘g‘ridan-to‘g‘ri boshqarma boshlig‘iga, buxgalteriya hisobini yuritish, hisobotlarni tuzish va taqdim qilish masalalari bo‘yicha esa Agentlik markaziy apparatining Moliya-iqtisod bo‘limiga bo‘ysunadi.

25. Boshqarma moliyaviy, xo‘jalik va huquqiy faoliyatini tekshirish qonunchilikda belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

8-bob. Boshqarmani qayta tashkil etish va tugatish

26. Mazkur nizomga o‘zgartirish va qo‘shimchalar Agentlik direktorining buyrug‘i bilan kiritiladi.

27. Boshqarma faoliyatini qayta tashkil etish va tugatish qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

28. Ushbu nizom talablari buzilishida aybdor bo‘lgan shaxslar qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda javobgar hisoblanadilar.

O‘zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari
agentligi direktorining 2024-yil
19-apreldagi 01/10-71-son buyrug‘iga
2-ilova

O‘zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligining Andijon viloyati Yoshlar ishlari boshqarmasi to‘g‘risida NIZOM

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Mazkur nizom Andijon viloyati Yoshlar ishlari boshqarmasining (keyingi o‘rinlarda – boshqarma) faoliyatini tashkil etish, boshqarmaning asosiy vazifalari va funksiyalari, huquqlari va majburiyatlari, tashkiliy tuzilmasi va boshqaruvi, boshqarma boshlig‘ining funksional vazifalari, javobgarligi, boshqarma faoliyatini baholash, hisoboti, xodimlarni moddiy rag‘batlantirish masalalarini tartibga soladi.

2. Boshqarma O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatini tubdan isloh qilish va yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2020-yil 30-iyundagi PF–6017-son Farmoni, “Yoshlar siyosati va sport sohasida davlat boshqaruv tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2024-yil 20-yanvardagi PF–18-son Farmoni, “O‘zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida” 2020-yil 30-iyundagi PQ–4768-son qarori hamda Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 11-sentabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi to‘g‘risida nizomni tasdiqlash haqida”gi 550-son qarori, shuningdek, boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlar va mazkur Nizomga asosan tashkil etilgan.

3. Boshqarma – O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 25-yanvardagi PF–14-son Farmoniga 2-ilovaga muvofiq respublika ijro etuvchi hokimiyat organ hisoblangan O‘zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi (keyingi o‘rinlarda – Agentlik deb yuritiladi) tashkiliy tuzilmasiga kiradi, o‘z faoliyati bo‘yicha Agentlikka bo‘ysunadi va hisobdor hisoblanadi.

4. Boshqarma o‘z faoliyatini O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlari, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari, farmoyishlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlari, boshqa qonunchilik hujjatlari, Agentlikning normativ-huquqiy hujjatlariga, shuningdek ushbu Nizomga asosan amalga oshiradi.

5. Boshqarma Agentlikning yuridik shaxs maqomiga ega bo‘lgan mustaqil tuzilmasi bo‘lib, operativ boshqaruvida o‘ziga xos maxsus mol-mulkka ega va ushbu mol-mulk bo‘yicha o‘z majburiyatlariga muvofiq javob beradi, o‘z nomidan mol-mulk sotib olishi va mulkiy hamda nomulkiy huquqlarni amalga oshirish, zimmasiga majburiyat olish huquqiga ega, sudda da’vogar va javobgar sifatida qatnashadi.

Boshqarma o‘z balansiga, g‘aznachilikda ochilgan hisob raqamlariga, O‘zbekiston Respublikasining Davlat gerbi tasviri tushirilgan va o‘z nomi yozilgan muhrga hamda o‘z faoliyati uchun zarur boshqa belgilar va rekvizitlarga ega bo‘ladi.

Boshqarmaning nizomi va tashkiliy tuzilmasi Agentlik direktori tomonidan tasdiqlanadi.

6. Boshqarmaning rasmiy nomi:

davlat tilida – Andijon viloyati Yoshlar ishlari boshqarmasi;

rus tilida – Управление по делам молодежи Андижанской области;

ingliz tilida – Department of Youth affairs of the Andijan region;

7. Boshqarmaning yuridik manzili (pochta manzili): Andijon shahar Cho‘lpon shoh ko‘chasi 187-uy.

2-bob. Boshqarmaning tuzilmasi

8. Boshqarma tizimiga yuridik shaxs tashkil etgan holda faoliyat yurituvchi Andijon viloyatidagi tuman (shahar) yoshlar ishlari bo‘limlari (keyingi o‘rinlarda – bo‘limlar) kiradi.

3-bob. Boshqarmaning asosiy vazifalari va funksiyalari

9. Quyidagilar boshqarmaning asosiy vazifalari hisoblanadi:

yoshlar bilan bog‘liq soha va yo‘nalishlarda yagona davlat siyosatini, strategik yo‘nalishlar va davlat dasturlarini ishlab chiqish hamda amalga oshirishda ishtirok etish;

mahallalarda yoshlar bilan ishlashning yangicha boshqaruv mexanizmlarini joriy etish, ular bilan ishlashning vertikal tizimini yaratish, yoshlar muammolarini bevosita mahallalarda hal etish bo‘yicha belgilangan vazifalarni samarali amalga oshirish;

yoshlarni Vatanga sadoqat, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash, ularning sog‘lig‘iga zarar yetkazuvchi axborotdan himoya qilish, o‘sib kelayotgan yosh avlodni ilm-fan va innovatsiyalarga keng jalb etish;

yoshlarning huquq va erkinliklari, qonuniy manfaatlarini himoya qilish, yoshlar o‘rtasida huquqbuzarliklar va jinoyatchilik profilaktikasiga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirishda ishtirok etish;

yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirish jarayonida nodavlat notijorat tashkilotlar va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari bilan hamkorlik qilish;

yoshlarning intellektual rivojlanishga bo‘lgan intilishlarini qo‘llab-quvvatlash va bu sohadagi ishlarni muvofiqlashtirib borish;

yoshlarni kichik biznes va xususiy tadbirkorlikka keng jalb etish, zamonaviy kasb-hunar, raqamli iqtisodiyot ko‘nikmalarini puxta egallashlari uchun qo‘shimcha shart-sharoitlar yaratish, ularni ish bilan ta’minlash jarayonlariga ko‘maklashish;

yoshlar ishlari sohasida xalqaro hamkorlikni yo‘lga qo‘yish va mustahkamlash, xalqaro shartnomalar tayyorlash, tuzish va bajarish haqida takliflar taqdim etish;

normativ-huquqiy hujjatlar va texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlarning ishlab chiqilishida ishtirok etish.

10. Boshqarma o‘ziga yuklangan vazifalarga muvofiq quyidagi funksiyalarni amalga oshiradi:

a) yoshlar bilan bog‘liq soha va yo‘nalishlarda yagona davlat siyosatini, strategik yo‘nalishlar va davlat dasturlarini ishlab chiqish hamda amalga oshirishda ishtirok etish sohasida:

O‘zbekiston Respublikasining yoshlarga oid yagona davlat siyosati asoslarini, mamlakatda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarga muvofiq o‘rta va uzoq muddatga mo‘ljallangan vazifalarni ishlab chiqishda ishtirok etadi;

yoshlarga oid davlat siyosatining ijrosini ta’minlaydi, davlat organlari va tashkilotlarining ushbu yo‘nalishdagi faoliyatini muvofiqlashtiradi hamda hamkorligini ta’minlaydi;

yoshlar bilan bog‘liq soha va yo‘nalishlarda amalga oshirilayotgan davlat dasturlari hamda loyihalarning samarali ijro etilishi monitoringini olib boradi;

demokratik islohotlarni chuqurlashtirish, fuqarolik jamiyatini barpo etish jarayonlarida yoshlar rolini oshirish ishlarini tashkil etadi;

b) mahallalarda yoshlar bilan ishlashning yangicha boshqaruv mexanizmlarini joriy etish, ular bilan ishlashning vertikal tizimini yaratish, yoshlar muammolarini bevosita mahallalarda hal etish bo‘yicha belgilangan vazifalarni samarali amalga oshirish sohasida:

“Yoshlar balansi”ni shakllantirish, yoshlar to‘g‘risidagi zarur ma’lumotlarni “Yoshlar daftari” va “Yoshlar portali” elektron platformalariga kiritib borilishi, ular bilan samarali ish tashkil qilinishini ta’minlaydi;

mahallalarda yoshlarning bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etish, milliy xalq o‘yinlari va sport turlarini yoshlar orasida ommalashtirish, Besh muhim tashabbus loyihalari, yoshlar festivallari va boshqa madaniy-ma’rifiy tadbirlarni amalga oshirishni ta’minlaydi;

yoshlarning ijtimoiy faolligini oshirish, iqtidori, iste’dodi va tashabbuslarini rag‘batlantirish hamda hayotda o‘z o‘rnini topishlariga ko‘maklashish bilan bog‘liq chora-tadbirlarni amalga oshiradi;

yoshlarning bo‘sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish maqsadida ularning fikr-mulohazalarini o‘rganishga qaratilgan ijtimoiy so‘rovlar o‘tkazadi va natijasi bo‘yicha tegishli tadbirlarni belgilaydi;

d) yoshlarni Vatanga sadoqat, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash, ularning sog‘lig‘iga zarar yetkazuvchi axborotdan himoya

qilish, o‘sib kelayotgan yosh avlodni ilm-fan va innovatsiyalarga keng jalb etish sohasida:

yosh avlodni Vatan manfaati yo‘lida birlashtirish, mamlakatimiz tarixini va milliy qadriyatlarni hurmat qilish ruhida tarbiyalash, diniy bag‘rikenglik va insoniylik tuyg‘ularini shakllantirish choralarini ko‘radi;

o‘sib kelayotgan yosh avlodni ma’nan va jismonan barkamol voyaga yetkazish, ularni sog‘lom turmush tarziga jalb etish bo‘yicha keng ko‘lamli tashkiliy, targ‘ibot-tashviqot ishlarini amalga oshiradi;

yoshlarning ilm-fanni egallashga bo‘lgan intilishlarini qo‘llab-quvvatlash, innovatsion faoliyat bilan shug‘ullanishlari uchun shart-sharoitlar yaratish bo‘yicha zarur choralar ko‘radi;

yoshlarning axborot borasidagi xavfsizligi kafolatlarini yaratish, axborot vositasida qonunga xilof ravishda yoshlarga ruhiy ta’sir ko‘rsatilishidan hamda ularning sog‘lig‘iga zarar yetkazuvchi axborotdan himoya qilishda zarur tadbirlarni amalga oshiradi;

yoshlar ongida milliy g‘ururni shakllantirish hamda mustahkamlashga xizmat qiladigan publitsistik, chizma, foto va video materiallarni tayyorlaydi hamda targ‘ib qilish choralarini ko‘radi, xorijiy ommaviy axborot vositalarida turli materiallar joylashtirish orqali mamlakatimiz ijobiy imijini shakllantiradi;

bolalarning har tomonlama, uyg‘un rivojlanishiga hamda milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalanishiga ko‘maklashuvchi axborotdan erkin foydalanish, ularning sog‘lig‘iga zarar yetkazuvchi axborotdan himoya qilishni ta’minlashga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshiradi va ushbu yo‘nalishda yakka tartibdagi profilaktika ishlarini amalga oshirishda ishtirok etadi;

bolalarning axborotga oid va huquqiy madaniyatini yuksaltirishga, shuningdek, ma’naviy-axloqiy tarbiyasiga doir faoliyatda ishtirok etadi;

bolalarni ularning sog‘lig‘iga zarar yetkazuvchi axborotdan himoya qilishga doir faoliyatni amalga oshiruvchi hamda ushbu faoliyatda ishtirok etuvchi boshqa organlar va tashkilotlar bilan hamkorlik qiladi;

e) yoshlarning huquq va erkinliklari, qonuniy manfaatlarini himoya qilish, yoshlar o‘rtasida huquqbuzarliklar va jinoyatchilik profilaktikasiga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirishda ishtirok etish sohasida:

yoshlarning huquqlari va erkinliklari buzilishi to‘g‘risidagi murojaatlarini ko‘rib chiqadi, ularning buzilgan huquqlarini tiklash bo‘yicha qonunchilik hujjatlariga muvofiq choralar ko‘radi;

yoshlarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, ularning o‘z iqtidor va iste’dodlarini to‘laqonli namoyon etishlari hamda imkoniyatlaridan to‘liq foydalanishlariga to‘sqinlik qiluvchi omillarni aniqlash va bartaraf etish, yoshlar o‘rtasida huquqbuzarlik va jinoyatchilikning oldini olishda, shu jumladan, huquqbuzarliklarning maxsus profilaktikasiga, yoshlar o‘rtasida huquqbuzarlik va jinoyatchilikni keskin kamaytirishga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirishda ishtirok etadi;

yoshlarning huquqiy madaniyatini oshirishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlarni ishlab chiqadi va amalga oshiradi, shu jumladan yoshlar o‘rtasida jamiyatda huquqiy ongni yuksaltirishga va qonuniylikni mustahkamlashga, shuningdek korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirishga qaratilgan huquqiy targ‘ibot bo‘yicha faoliyatda ishtirok etadi;

yoshlar o‘rtasida huquqbuzarliklar sodir etilishiga imkon berayotgan sabablar va shart-sharoitlarni aniqlashda hamda bartaraf etishda ko‘maklashadi;

f) yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirish jarayonida nodavlat notijorat tashkilotlar va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari bilan hamkorlik qilish sohasida:

yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirishga qaratilgan davlat dasturlari hamda loyihalarni ishlab chiqish va amalga oshirishda nodavlat notijorat tashkilotlar hamda fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari bilan hamkorlik o‘rnatadi;

nodavlat notijorat tashkilotlar va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlariga yoshlarga oid dasturlar va loyihalarni amalga oshirishda g‘oyaviy-metodik, ilmiy-amaliy va tashkiliy-huquqiy jihatdan ko‘maklashadi;

nodavlat notijorat tashkilotlar va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari tomonidan yoshlarga oid muammoli masalalar, shu jumladan, ularni hal etish bo‘yicha ishlab chiqilgan takliflarni o‘rganadi va tahlillar asosida tegishli muammolarni bartaraf etish bo‘yicha amaliy choralar ko‘radi;

yoshlar tadbirkorligini rivojlantirish, ularning bandligini ta’minlash, axborot-kommunikatsiya, innovatsion texnologiyalarni joriy etish, madaniyat, san’at, kitobxonlikni rivojlantirish, ekologiya va boshqa sohalarda nodavlat notijorat tashkilotlar bilan hamkorlikda loyihalarni ishlab chiqadi va amalga oshiradi;

g) yoshlarning intellektual rivojlanishga bo‘lgan intilishlarini qo‘llab-quvvatlash va bu sohadagi ishlarni muvofiqlashtirib borish sohasida:

yoshlarning intellektual jihatdan kamol topishini va ma’naviy rivojlanishini ta’minlash bilan bog‘liq chora-tadbirlarni amalga oshiradi;

yoshlar o‘rtasida intellektual o‘yinlar, notiqlik musobaqalari, chet tillarda munozara va uchrashuvlar o‘tkazadi;

yoshlar o‘rtasida intellektual o‘yinlarni rivojlantirish hamda ommalashtirishga qaratilgan loyihalarni qo‘llab-quvvatlash choralarini ko‘radi;

intellektual o‘yinlar va ulardagi iqtidorli ishtirokchilar haqidagi ma’lumotlarning elektron platformaga kiritilishini ta’minlaydi va intellektual o‘yinlar natijalarini ommaviy axborot vositalarida yoritib boradi;

h) yoshlarni kichik biznes va xususiy tadbirkorlikka keng jalb etish, zamonaviy kasb-hunar, raqamli iqtisodiyot ko‘nikmalarini puxta egallashlari uchun qo‘shimcha shart-sharoitlar yaratish, ularni ish bilan ta’minlash jarayonlariga ko‘maklashish sohasida:

yoshlarni tadbirkorlikka yo‘naltirish, kasb-hunarga o‘qitish va ularning bandligini ta’minlash, shuningdek, raqamli iqtisodiyot ko‘nikmalarini puxta

egallashi uchun qo‘shimcha shart-sharoitlar yaratish bo‘yicha chora-tadbirlarni belgilaydi va amalga oshiradi;

yoshlar uchun yangi ish o‘rinlarini yaratish, yoshlar tadbirkorligini rivojlantirish borasidagi chora-tadbirlarni monitoring qilib boradi, ularning samaradorligini oshirish bo‘yicha takliflar tayyorlaydi;

yoshlar tadbirkorligi sohasida forum, tadbir va yarmarkalar o‘tkazadi, yosh tadbirkorlarning xalqaro forum va yarmarkalardagi ishtirokini ta’minlaydi, joylardagi ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish tashkilotlariga biznes sayohatlar tashkil etadi;

tadbirkorlik yo‘nalishlari bo‘yicha biznesni yo‘lga qo‘yishdan daromad olishgacha bo‘lgan masalalarni o‘rgatishga qaratilgan masofaviy o‘quv mashg‘ulotlari o‘tkazilishi va qo‘llanmalar yaratilishini ta’minlaydi;

yoshlarning tadbirkorlik faoliyatida yuzaga kelayotgan muammolarni, yoshlar ishsizligi sabablarini o‘rganadi va ularni bartaraf etish bo‘yicha takliflar ishlab chiqadi;

yoshlar, ayniqsa, yosh oilalarni tadbirkorlik va hunarmandchilikka jalb etish, yoshlarning o‘zini o‘zi band qilish, jumladan, frilanserlik faoliyatini rivojlantirish ishlarini amalga oshiradi;

i) yoshlar ishlari sohasida xalqaro hamkorlikni yo‘lga qo‘yish va mustahkamlash, xalqaro shartnomalar tayyorlash, tuzish va bajarish haqida takliflar taqdim etish sohasida:

yoshlar o‘rtasida xalqaro intellektual, sport, madaniy va boshqa sohalardagi aloqalarni mustahkamlash, bu borada konferensiya, ko‘rgazmalar, ijodiy safarlar tashkil etish, xalqaro va respublika miqyosida o‘tkaziladigan tanlovlar, festivallar va boshqa tadbirlarda iqtidorli va iste’dodli yoshlar ishtirokini ta’minlashga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshiradi;

ilg‘or xalqaro tajriba asosida O‘zbekistonda yoshlar siyosati samaradorligini baholash va mavjud muammolarni bartaraf etishga qaratilgan tizimli ishlarni amalga oshiradi;

xorijda mehnat qilayotgan va tahsil olayotgan yoshlar bilan muloqotlar olib boradi, ularning huquq va erkinliklarini ta’minlashga qaratilgan tizimli ishlarni qo‘llab-quvvatlash maqsadida takliflar tayyorlaydi hamda bu borada vakolatli organlar bilan hamkorlik qiladi;

j) normativ-huquqiy hujjatlar va texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlarning ishlab chiqilishi va tasdiqlanishini tashkil etish sohasida:

ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturlari va normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini ishlab chiqish, tegishli takliflar va loyihalarni tayyorlashda ishtirok etadi, shuningdek ularni ko‘rib chiqish uchun vakolatli davlat organlariga kiritadi;

ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturlari va normativ-huquqiy hujjatlarning ro‘yobga chiqarilishi ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirishda ishtirok

etadi, uning yakunlari bo‘yicha takliflar tayyorlaydi hamda ularni vakolatli davlat organlariga kiritadi.

4-bob. Boshqarmaning huquqlari

11. Boshqarma quyidagi huquqlarga ega:

yoshlarga oid qonunchilik hujjatlarining ijro etilishini, shu jumladan, hududlarda yoshlarning huquq va qonuniy manfaatlariga rioya etilishini o‘rganish va tahlil qilish;

o‘z vakolatlariga kiruvchi masalalar yuzasidan davlat organlari va tashkilotlarining hududiy bo‘linmalaridan statistik, tahliliy materiallar, xulosalar va boshqa ma’lumotlarni so‘rash va olish;

o‘z vakolatlari doirasida yoshlar, jumladan, tarbiya muassasalarini tamomlagan yetim va ota-onasi qaramog‘idan mahrum bo‘lgan yoshlarning huquqlarini himoya qilish hamda yoshlar to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlari buzilishi holatlarini bartaraf etish yuzasidan tashkiliy-huquqiy shaklidan qat’i nazar tashkilotlar, muassasalar va korxonalarga bajarilishi majburiy bo‘lgan ko‘rsatmalar kiritish;

davlat organlari va tashkilotlari rahbarlariga yoshlar to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlari buzilishi, ularni keltirib chiqaruvchi sabab va sharoitlarni bartaraf etish bo‘yicha ko‘rib chiqilishi majburiy bo‘lgan taqdimnomalar kiritish;

o‘ziga tegishli mol-mulkni qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda tasarruf etish;

davlat organlari va tashkilotlari hududiy bo‘linmalarining yoshlar masalalari bilan bog‘liq majlislari, yig‘ilishlari, hay’atlarida ishtirok etish;

axborot-tahliliy materiallarni tayyorlash va dasturiy hujjatlarni ishlab chiqish uchun davlat boshqaruvi organlari va xo‘jalik birlashmalarining hududiy bo‘limlari, shuningdek, ilmiy tashkilotlarning yuqori malakali mutaxassislarini jalb qilish.

5-bob. Boshqarma boshqaruvi

12. Boshqarmani boshqarish boshliq tomonidan amalga oshiriladi. Boshliq Agentlik direktori tomonidan lavozimiga tayinlanadi va lavozimidan ozod etiladi.

13. Boshqarma boshlig‘ining o‘rinbosarini lavozimiga tayinlash, lavozimidan ozod etish, shu jumladan, Boshqarma boshlig‘i o‘rinbosari vazifasini vaqtincha bajaruvchi etib tayinlash Agentlik direktori bilan kelishilgan holda tegishli hududiy boshqarma boshlig‘ining buyrug‘i bilan amalga oshiriladi.

Boshqarma boshlig‘i o‘rinbosari boshqarma boshlig‘ining buyruqlarini o‘z vaqtida va sifatli bajarilishini ta’minlaydi hamda o‘ziga yuklatilgan topshiriq va vazifalarni bajarish uchun shaxsan javobgardir.

Boshqarma boshlig‘i bo‘lmagan vaqtda uning vakolatlari boshliq o‘rinbosari tomonidan amalga oshiriladi.

Boshqarma xodimlari qonunchilikda belgilangan tartibda boshqarma boshlig‘i tomonidan lavozimga tayinlanadi va lavozimidan ozod etiladi.

Bunda, boshqarmaning boshqaruv xodimlarini lavozimiga tayinlash, lavozimidan ozod etish, shu jumladan, vazifasini vaqtincha bajaruvchi etib tayinlash Agentlik markaziy apparati bilan kelishilgan holda tegishli hududiy boshqarma boshlig‘ining buyrug‘i bilan amalga oshiriladi.

Ushbu bandda belgilangan tartib buzilgan holda chiqarilgan buyruq Agentlik direktori tomonidan bekor qilinadi, ushbu tartibni buzgan xodimlar, shu jumladan, rahbar xodimlar intizomiy javobgarlikka tortiladi.

14. Quyidagilar boshqarma boshlig‘ining asosiy funksional majburiyatlari hisoblanadi:

boshqarma faoliyatiga umumiy rahbarlik qilish, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari, farmoyishlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari, farmoyishlari, Agentlik Hay’ati va rahbariyatining normativ-huquqiy hujjatlari, topshiriqlari va ko‘rsatmalari bilan boshqarmaga yuklangan vazifalar va funksiyalar bajarilishini tashkil etish;

boshqarma va bo‘limlar faoliyati bilan bog‘liq prognoz ko‘rsatkichlarga erishishni so‘zsiz ta’minlash bo‘yicha amaliy chora-tadbirlarni ishlab chiqish va qabul qilish;

boshqarma va bo‘limlar faoliyatini nazorat qilish va muvofiqlashtirish;

boshqarma va bo‘limlar xodimlari tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari, farmoyishlari va topshiriqlari ijrosi ta’minlanishi, ijro intizomi mustahkamlanishi bo‘yicha kompleks amaliy chora-tadbirlar amalga oshirilishi, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 10-fevraldagi “Qonunchilik hujjatlari ijrosini samarali tashkil etishda davlat boshqaruvi organlari va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari rahbarlarining shaxsiy javobgarligini kuchaytirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF–6166-son Farmoni, 2021-yil 31-maydagi “Ijro.gov.uz” ijro intizomi idoralararo yagona elektron tizimi samarali faoliyat ko‘rsatishini ta’minlashga qaratilgan qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ–5132-son qaroriga muvofiq topshiriqlarning o‘z vaqtida va sifatli bajarilishi uchun xodimlarning shaxsiy mas’uliyatini oshirish choralarini ko‘rish;

boshqarma vakolatiga kiradigan masalalar bo‘yicha buyruqlar, farmoyishlar, ko‘rsatmalar chiqarish, zarur bo‘lganda boshqa vazirliklar va idoralar bilan birgalikda tegishli qarorlar qabul qilish;

boshqarma faoliyati sohasiga kiradigan masalalar yuzasidan mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari va kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo‘yicha sektorlar bilan hamkorlik qilish;

boshqarmada kadrlarni tanlash va joy-joyiga qo‘yish, ularning professionalligi, o‘z ishini bilishi, yuksak darajadagi ishchanlik va ma’naviy-axloqiy

fazilatlarga ega bo‘lishini ta’minlash, ularning kasbiy malakasini oshirish, kadrlar zaxirasini shakllantirish choralarini ko‘rish;

boshqarma xodimlari, hududiy boshqarmalar va idoraviy mansub tashkilotlar rahbarlari bilan qonunchilikda belgilangan tartibda mehnat shartnomalarini tuzish va bekor qilish;

xodimlarning vakolatlarini belgilash, ular o‘rtasida majburiyatlarni taqsimlash, boshqarmalarni boshqarishda mas’ul xodimlarning javobgarligini belgilash;

boshqarma faoliyatini rejalashtirishni tashkil etish, har choraklik ish rejalarini tasdiqlash, ularning bajarilishi nazoratini ta’minlash;

boshqarma xodimlarini rag‘batlantirish va intizomiy javobgarlikka tortish masalalarini hal qilish, shu jumladan, ular egallab turgan lavozimda qolishi maqsadga muvofiqligiga doir masalalarni ko‘rib chiqish, ularning shaxsiy mas’uliyatini oshirish bo‘yicha muntazam choralar ko‘rish;

boshqarma xodimlarining odob-axloq qoidalari talablariga rioya qilishini ta’minlash;

“Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni talablariga muvofiq boshqarmada korrupsiya va boshqa huquqbuzarliklarning oldini olish choralarini ko‘rish, shuningdek, huquqni qo‘llash amaliyotini va qonunchilik hujjatlarini takomillashtirishga doir chora-tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirish orqali ularning sodir etilishiga ko‘maklashuvchi sabablar va shart-sharoitlarni aniqlash, tahlil qilish hamda bartaraf etish;

prognoz ko‘rsatkichlarning bajarilishini muntazam tahlil qilish hamda ushbu ko‘rsatkichlarga so‘zsiz erishishini ta’minlashga qaratilgan qo‘shimcha choralar ko‘rish bo‘yicha takliflarni Agentlikka kiritish;

boshqarma xodimlari faoliyatining samaradorligi va natijadorligini tizimli ravishda tanqidiy tahlil qilish, yig‘ilishlarda ularning shaxsiy hisobotlarini eshitish, ularning yakunlari bo‘yicha zarur chora-tadbirlarni amalga oshirish;

boshqarma xodimlari faoliyatiga oid masalalar bo‘yicha qonunchilik hujjatlarini takomillashtirish, shuningdek, davlat xizmatlari samaradorligi, sifatini oshirish va ulardan erkin foydalanish bo‘yicha takliflarni ishlab chiqish hamda ko‘rib chiqish uchun Agentlik rahbariyatiga kiritish;

boshqarma xodimlari faoliyatining samaradorligi va natijalarini tizimli ravishda tanqidiy tahlil qilish, Boshqarma yig‘ilishlarida ularning shaxsiy hisobotlarini eshitish, natijalar asosida zarur choralar ko‘rish;

jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarini ko‘rib chiqish, aholi bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri va ochiq muloqotni yo‘lga qo‘yish, muntazam ravishda shaxsan, shu jumladan, sayyor qabullar o‘tkazish;

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Xalq qabulxonalari bilan samarali hamkorlik qilish, ularning faoliyatida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash tizimini tubdan takomillashtirishga doir chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2016-yil 28-dekabrdagi

PF–4904-son Farmoniga muvofiq faol ishtirok etish, jismoniy va yuridik shaxslarning O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Virtual qabulxonasidan tushgan murojaatlarini o‘z vaqtida va to‘laqonli ko‘rib chiqish;

boshqarma xodimlariga ustamalar, qo‘shimcha to‘lovlar to‘lash, ularga moddiy yordam berish, ularni rag‘batlantirish va ularga intizomiy chora qo‘llash to‘g‘risida qaror qabul qilish, ularni davlat mukofotlari va idoraviy mukofotlar bilan taqdirlash to‘g‘risida Agentlikka takliflar kiritish;

davlat sirini yoki qonunchilik bilan qo‘riqlanadigan boshqa sirni tashkil etuvchi ma’lumotlarning himoya qilinishini ta’minlash;

mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlarida, sudlarda va tashkilotlarda Boshqarma manfaatlarini ifoda etish.

15. Boshqarma boshlig‘i:

yuklangan vazifa va funksiyalarning sifatli bajarilishini tashkil etish;

tegishli hududda yoshlarga oid qonunchilik hujjatlari, Agentlik direktori va uning o‘rinbosarlari topshiriqlari, shuningdek, o‘ziga yuklatilgan vazifa va funksiyalarning o‘z vaqtida va sifatli bajarilishi yuzasidan ta’sirchan nazoratni amalga oshirish;

tegishli hududda yoshlar sohasidagi respublikaning tegishli dasturlari va sohalarni rivojlantirish bo‘yicha dasturlari bilan o‘zaro bog‘liq holda hududlarni rivojlantirish dasturlarining belgilangan tartibda ishlab chiqilishini ta’minlash;

tegishli hududda yoshlarga oid davlat siyosatining holati to‘g‘risida Agentlikka haqqoniy tahliliy va boshqa axborotni taqdim etish yuzasidan javobgar bo‘ladi.

6-bob. Boshqarmaning faoliyatini moliyalashtirish

16. Quyidagilar Boshqarma faoliyatini moliyalashtirish manbalari hisoblanadi:

O‘zbekiston Respublikasi Davlat budjeti mablag‘lari;

jismoniy va yuridik shaxslarning homiylik xayriyalari;

xalqaro moliya institutlari, xorijiy tashkilotlarning grantlari doirasida tushadigan mablag‘lar;

qonunchilik hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa manbalar.

Boshqarma moliyaviy mablag‘laridan qonunchlik hujjatlarida belgilangan tartibda foydalaniladi.

17. Boshqarmaning budjetdan tashqari manbalar hisobiga moliyaviy ta’minlanadigan xarajatlar smetasi qonunchilikda belgilangan tartibda tasdiqlanadi.

18. Boshqarma mol-mulkini ijaraga berish O‘zbekiston Respublikasining davlat mulkini ijaraga berish to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladi.

Boshqarma O‘zbekiston Respublikasi qonunchilik hujjatlariga va ushbu nizom qoidalariga muvofiq ravishda shartnomalarni tuzish, majburiyatlar va boshqa shartlarni belgilash masalalarini mustaqil ravishda hal etadi.

19. Boshqarmaning moddiy-texnik bazasi unga tegishli bo‘lgan yer maydonlari, ma’muriy binolar, kommunikatsiya, transport vositalari va asbob-uskunalar, shuningdek, asosiy fondlar, aylanma mablag‘lar, moliyaviy resurslar va uning mustaqil balansida aks etgan boshqa moddiy qiymatliklardan iborat.

20. Boshqarmaning moddiy-texnik bazasini jihozlash va takomillashtirib borish Agentlik tomonidan belgilanadigan moddiy-texnik ta’minlashning normativlari asosida amalga oshiriladi.

21. Boshqarmaga bitta yengil avtomobil uchun limit ajratiladi.

22. Boshqarma xodimlari maqomi, mehnatga haq to‘lash, moddiy rag‘batlantirish va tibbiy xizmat ko‘rsatish shartlariga ko‘ra tegishlicha vazirliklar hududiy boshqarmalari xodimlariga tenglashtiriladi.

23. Boshqarma xodimlarining mehnatiga haq to‘lash shartlari, yillik ta’til da’vomiyligi, ijtimoiy himoya qilish choralari O‘zbekiston Respublikasining qonunchilik hujjatlari muvofiq amalga oshiriladi.

Boshqarma tomonidan amalga oshirilgan ishlarning natijadorligi, joriy qilgan, ishlab chiqqan yangilik va istiqbolli loyihalari, yuqori tashkilotlarning ko‘rsatma xatlari va topshiriqlariga muvofiq, ishdagi yutuqlari va mas’uliyatli vazifalarni bajarganligi uchun, shuningdek, jamoa shartnomalarida belgilangan tartibda qo‘shimcha rag‘batlantirish mumkin.

7-bob. Boshqarmaning buxgalteriya hisobi va hisoboti

24. Boshqarma O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligida belgilangan tartibda buxgalteriya hisobi va statistik hisobotlarni olib boradi.

Boshqarma bosh hisobchisi qonunchilikda belgilangan huquqlardan foydalanadi va majburiyatlarni bajaradi.

Boshqarma bosh hisobchisi to‘g‘ridan-to‘g‘ri boshqarma boshlig‘iga, buxgalteriya hisobini yuritish, hisobotlarni tuzish va taqdim qilish masalalari bo‘yicha esa Agentlik markaziy apparatining Moliya-iqtisod bo‘limiga bo‘ysunadi.

25. Boshqarma moliyaviy, xo‘jalik va huquqiy faoliyatini tekshirish qonunchilikda belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

8-bob. Boshqarmani qayta tashkil etish va tugatish

26. Mazkur nizomga o‘zgartirish va qo‘shimchalar Agentlik direktorining buyrug‘i bilan kiritiladi.

27. Boshqarma faoliyatini qayta tashkil etish va tugatish qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

28. Ushbu nizom talablari buzilishida aybdor bo‘lgan shaxslar qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda javobgar hisoblanadilar.

O‘zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari
agentligi direktorining 2024-yil
19-apreldagi 01/10-71-son buyrug‘iga
3-ilova

O‘zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligining Buxoro viloyati Yoshlar ishlari boshqarmasi to‘g‘risida NIZOM

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Mazkur nizom Buxoro viloyati Yoshlar ishlari boshqarmasining (keyingi o‘rinlarda – boshqarma) faoliyatini tashkil etish, boshqarmaning asosiy vazifalari va funksiyalari, huquqlari va majburiyatlari, tashkiliy tuzilmasi va boshqaruvi, boshqarma boshlig‘ining funksional vazifalari, javobgarligi, boshqarma faoliyatini baholash, hisoboti, xodimlarni moddiy rag‘batlantirish masalalarini tartibga soladi.

2. Boshqarma O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatini tubdan isloh qilish va yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2020-yil 30-iyundagi PF–6017-son Farmoni, “Yoshlar siyosati va sport sohasida davlat boshqaruv tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2024-yil 20-yanvardagi PF–18-son Farmoni, “O‘zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida” 2020-yil 30-iyundagi PQ–4768-son qarori hamda Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 11-sentabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi to‘g‘risida nizomni tasdiqlash haqida”gi 550-son qarori, shuningdek, boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlar va mazkur Nizomga asosan tashkil etilgan.

3. Boshqarma – O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 25-yanvardagi PF–14-son Farmoniga 2-ilovaga muvofiq respublika ijro etuvchi hokimiyat organ hisoblangan O‘zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi (keyingi o‘rinlarda – Agentlik deb yuritiladi) tashkiliy tuzilmasiga kiradi, o‘z faoliyati bo‘yicha Agentlikka bo‘ysunadi va hisobdor hisoblanadi.

4. Boshqarma o‘z faoliyatini O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlari, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari, farmoyishlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlari, boshqa qonunchilik hujjatlari, Agentlikning normativ-huquqiy hujjatlariga, shuningdek ushbu Nizomga asosan amalga oshiradi.

5. Boshqarma Agentlikning yuridik shaxs maqomiga ega bo‘lgan mustaqil tuzilmasi bo‘lib, operativ boshqaruvida o‘ziga xos maxsus mol-mulkka ega va ushbu mol-mulk bo‘yicha o‘z majburiyatlariga muvofiq javob beradi, o‘z nomidan mol-mulk sotib olishi va mulkiy hamda nomulkiy huquqlarni amalga oshirish, zimmasiga majburiyat olish huquqiga ega, sudda da’vogar va javobgar sifatida qatnashadi.

Boshqarma o‘z balansiga, g‘aznachilikda ochilgan hisob raqamlariga, O‘zbekiston Respublikasining Davlat gerbi tasviri tushirilgan va o‘z nomi yozilgan muhrga hamda o‘z faoliyati uchun zarur boshqa belgilar va rekvizitlarga ega bo‘ladi.

Boshqarmaning nizomi va tashkiliy tuzilmasi Agentlik direktori tomonidan tasdiqlanadi.

6. Boshqarmaning rasmiy nomi:

davlat tilida – Buxoro viloyati Yoshlar ishlari boshqarmasi;

rus tilida – Управление по делам молодежи Бухарской области;

ingliz tilida – Department of Youth affairs of Bukhara region;

7. Boshqarmaning yuridik manzili (pochta manzili): Buxoro shahar A.Navoiy shoh ko‘chasi 10-uy.

2-bob. Boshqarmaning tuzilmasi

8. Boshqarma tizimiga yuridik shaxs tashkil etgan holda faoliyat yurituvchi Buxoro viloyatidagi tuman (shahar) yoshlar ishlari bo‘limlari (keyingi o‘rinlarda – bo‘limlar) kiradi.

3-bob. Boshqarmaning asosiy vazifalari va funksiyalari

9. Quyidagilar boshqarmaning asosiy vazifalari hisoblanadi:

yoshlar bilan bog‘liq soha va yo‘nalishlarda yagona davlat siyosatini, strategik yo‘nalishlar va davlat dasturlarini ishlab chiqish hamda amalga oshirishda ishtirok etish;

mahallalarda yoshlar bilan ishlashning yangicha boshqaruv mexanizmlarini joriy etish, ular bilan ishlashning vertikal tizimini yaratish, yoshlar muammolarini bevosita mahallalarda hal etish bo‘yicha belgilangan vazifalarni samarali amalga oshirish;

yoshlarni Vatanga sadoqat, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash, ularning sog‘lig‘iga zarar yetkazuvchi axborotdan himoya qilish, o‘sib kelayotgan yosh avlodni ilm-fan va innovatsiyalarga keng jalb etish;

yoshlarning huquq va erkinliklari, qonuniy manfaatlarini himoya qilish, yoshlar o‘rtasida huquqbuzarliklar va jinoyatchilik profilaktikasiga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirishda ishtirok etish;

yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirish jarayonida nodavlat notijorat tashkilotlar va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari bilan hamkorlik qilish;

yoshlarning intellektual rivojlanishga bo‘lgan intilishlarini qo‘llab-quvvatlash va bu sohadagi ishlarni muvofiqlashtirib borish;

yoshlarni kichik biznes va xususiy tadbirkorlikka keng jalb etish, zamonaviy kasb-hunar, raqamli iqtisodiyot ko‘nikmalarini puxta egallashlari uchun qo‘shimcha shart-sharoitlar yaratish, ularni ish bilan ta’minlash jarayonlariga ko‘maklashish;

yoshlar ishlari sohasida xalqaro hamkorlikni yo‘lga qo‘yish va mustahkamlash, xalqaro shartnomalar tayyorlash, tuzish va bajarish haqida takliflar taqdim etish;

normativ-huquqiy hujjatlar va texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlarning ishlab chiqilishida ishtirok etish.

10. Boshqarma o‘ziga yuklangan vazifalarga muvofiq quyidagi funksiyalarni amalga oshiradi:

a) yoshlar bilan bog‘liq soha va yo‘nalishlarda yagona davlat siyosatini, strategik yo‘nalishlar va davlat dasturlarini ishlab chiqish hamda amalga oshirishda ishtirok etish sohasida:

O‘zbekiston Respublikasining yoshlarga oid yagona davlat siyosati asoslarini, mamlakatda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarga muvofiq o‘rta va uzoq muddatga mo‘ljallangan vazifalarni ishlab chiqishda ishtirok etadi;

yoshlarga oid davlat siyosatining ijrosini ta’minlaydi, davlat organlari va tashkilotlarining ushbu yo‘nalishdagi faoliyatini muvofiqlashtiradi hamda hamkorligini ta’minlaydi;

yoshlar bilan bog‘liq soha va yo‘nalishlarda amalga oshirilayotgan davlat dasturlari hamda loyihalarning samarali ijro etilishi monitoringini olib boradi;

demokratik islohotlarni chuqurlashtirish, fuqarolik jamiyatini barpo etish jarayonlarida yoshlar rolini oshirish ishlarini tashkil etadi;

b) mahallalarda yoshlar bilan ishlashning yangicha boshqaruv mexanizmlarini joriy etish, ular bilan ishlashning vertikal tizimini yaratish, yoshlar muammolarini bevosita mahallalarda hal etish bo‘yicha belgilangan vazifalarni samarali amalga oshirish sohasida:

“Yoshlar balansi”ni shakllantirish, yoshlar to‘g‘risidagi zarur ma’lumotlarni “Yoshlar daftari” va “Yoshlar portali” elektron platformalariga kiritib borilishi, ular bilan samarali ish tashkil qilinishini ta’minlaydi;

mahallalarda yoshlarning bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etish, milliy xalq o‘yinlari va sport turlarini yoshlar orasida ommalashtirish, Besh muhim tashabbus loyihalari, yoshlar festivallari va boshqa madaniy-ma’rifiy tadbirlarni amalga oshirishni ta’minlaydi;

yoshlarning ijtimoiy faolligini oshirish, iqtidori, iste’dodi va tashabbuslarini rag‘batlantirish hamda hayotda o‘z o‘rnini topishlariga ko‘maklashish bilan bog‘liq chora-tadbirlarni amalga oshiradi;

yoshlarning bo‘sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish maqsadida ularning fikr-mulohazalarini o‘rganishga qaratilgan ijtimoiy so‘rovlar o‘tkazadi va natijasi bo‘yicha tegishli tadbirlarni belgilaydi;

d) yoshlarni Vatanga sadoqat, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash, ularning sog‘lig‘iga zarar yetkazuvchi axborotdan himoya

qilish, o‘sib kelayotgan yosh avlodni ilm-fan va innovatsiyalarga keng jalb etish sohasida:

yosh avlodni Vatan manfaati yo‘lida birlashtirish, mamlakatimiz tarixini va milliy qadriyatlarni hurmat qilish ruhida tarbiyalash, diniy bag‘rikenglik va insoniylik tuyg‘ularini shakllantirish choralarini ko‘radi;

o‘sib kelayotgan yosh avlodni ma’nan va jismonan barkamol voyaga yetkazish, ularni sog‘lom turmush tarziga jalb etish bo‘yicha keng ko‘lamli tashkiliy, targ‘ibot-tashviqot ishlarini amalga oshiradi;

yoshlarning ilm-fanni egallashga bo‘lgan intilishlarini qo‘llab-quvvatlash, innovatsion faoliyat bilan shug‘ullanishlari uchun shart-sharoitlar yaratish bo‘yicha zarur choralar ko‘radi;

yoshlarning axborot borasidagi xavfsizligi kafolatlarini yaratish, axborot vositasida qonunga xilof ravishda yoshlarga ruhiy ta’sir ko‘rsatilishidan hamda ularning sog‘lig‘iga zarar yetkazuvchi axborotdan himoya qilishda zarur tadbirlarni amalga oshiradi;

yoshlar ongida milliy g‘ururni shakllantirish hamda mustahkamlashga xizmat qiladigan publitsistik, chizma, foto va video materiallarni tayyorlaydi hamda targ‘ib qilish choralarini ko‘radi, xorijiy ommaviy axborot vositalarida turli materiallar joylashtirish orqali mamlakatimiz ijobiy imijini shakllantiradi;

bolalarning har tomonlama, uyg‘un rivojlanishiga hamda milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalanishiga ko‘maklashuvchi axborotdan erkin foydalanish, ularning sog‘lig‘iga zarar yetkazuvchi axborotdan himoya qilishni ta’minlashga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshiradi va ushbu yo‘nalishda yakka tartibdagi profilaktika ishlarini amalga oshirishda ishtirok etadi;

bolalarning axborotga oid va huquqiy madaniyatini yuksaltirishga, shuningdek, ma’naviy-axloqiy tarbiyasiga doir faoliyatda ishtirok etadi;

bolalarni ularning sog‘lig‘iga zarar yetkazuvchi axborotdan himoya qilishga doir faoliyatni amalga oshiruvchi hamda ushbu faoliyatda ishtirok etuvchi boshqa organlar va tashkilotlar bilan hamkorlik qiladi;

e) yoshlarning huquq va erkinliklari, qonuniy manfaatlarini himoya qilish, yoshlar o‘rtasida huquqbuzarliklar va jinoyatchilik profilaktikasiga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirishda ishtirok etish sohasida:

yoshlarning huquqlari va erkinliklari buzilishi to‘g‘risidagi murojaatlarini ko‘rib chiqadi, ularning buzilgan huquqlarini tiklash bo‘yicha qonunchilik hujjatlariga muvofiq choralar ko‘radi;

yoshlarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, ularning o‘z iqtidor va iste’dodlarini to‘laqonli namoyon etishlari hamda imkoniyatlaridan to‘liq foydalanishlariga to‘sqinlik qiluvchi omillarni aniqlash va bartaraf etish, yoshlar o‘rtasida huquqbuzarlik va jinoyatchilikning oldini olishda, shu jumladan, huquqbuzarliklarning maxsus profilaktikasiga, yoshlar o‘rtasida huquqbuzarlik va jinoyatchilikni keskin kamaytirishga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirishda ishtirok etadi;

yoshlarning huquqiy madaniyatini oshirishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlarni ishlab chiqadi va amalga oshiradi, shu jumladan yoshlar o‘rtasida jamiyatda huquqiy ongni yuksaltirishga va qonuniylikni mustahkamlashga, shuningdek korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirishga qaratilgan huquqiy targ‘ibot bo‘yicha faoliyatda ishtirok etadi;

yoshlar o‘rtasida huquqbuzarliklar sodir etilishiga imkon berayotgan sabablar va shart-sharoitlarni aniqlashda hamda bartaraf etishda ko‘maklashadi;

f) yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirish jarayonida nodavlat notijorat tashkilotlar va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari bilan hamkorlik qilish sohasida:

yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirishga qaratilgan davlat dasturlari hamda loyihalarni ishlab chiqish va amalga oshirishda nodavlat notijorat tashkilotlar hamda fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari bilan hamkorlik o‘rnatadi;

nodavlat notijorat tashkilotlar va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlariga yoshlarga oid dasturlar va loyihalarni amalga oshirishda g‘oyaviy-metodik, ilmiy-amaliy va tashkiliy-huquqiy jihatdan ko‘maklashadi;

nodavlat notijorat tashkilotlar va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari tomonidan yoshlarga oid muammoli masalalar, shu jumladan, ularni hal etish bo‘yicha ishlab chiqilgan takliflarni o‘rganadi va tahlillar asosida tegishli muammolarni bartaraf etish bo‘yicha amaliy choralar ko‘radi;

yoshlar tadbirkorligini rivojlantirish, ularning bandligini ta’minlash, axborot-kommunikatsiya, innovatsion texnologiyalarni joriy etish, madaniyat, san’at, kitobxonlikni rivojlantirish, ekologiya va boshqa sohalarda nodavlat notijorat tashkilotlar bilan hamkorlikda loyihalarni ishlab chiqadi va amalga oshiradi;

g) yoshlarning intellektual rivojlanishga bo‘lgan intilishlarini qo‘llab-quvvatlash va bu sohadagi ishlarni muvofiqlashtirib borish sohasida:

yoshlarning intellektual jihatdan kamol topishini va ma’naviy rivojlanishini ta’minlash bilan bog‘liq chora-tadbirlarni amalga oshiradi;

yoshlar o‘rtasida intellektual o‘yinlar, notiqlik musobaqalari, chet tillarda munozara va uchrashuvlar o‘tkazadi;

yoshlar o‘rtasida intellektual o‘yinlarni rivojlantirish hamda ommalashtirishga qaratilgan loyihalarni qo‘llab-quvvatlash choralarini ko‘radi;

intellektual o‘yinlar va ulardagi iqtidorli ishtirokchilar haqidagi ma’lumotlarning elektron platformaga kiritilishini ta’minlaydi va intellektual o‘yinlar natijalarini ommaviy axborot vositalarida yoritib boradi;

h) yoshlarni kichik biznes va xususiy tadbirkorlikka keng jalb etish, zamonaviy kasb-hunar, raqamli iqtisodiyot ko‘nikmalarini puxta egallashlari uchun qo‘shimcha shart-sharoitlar yaratish, ularni ish bilan ta’minlash jarayonlariga ko‘maklashish sohasida:

yoshlarni tadbirkorlikka yo‘naltirish, kasb-hunarga o‘qitish va ularning bandligini ta’minlash, shuningdek, raqamli iqtisodiyot ko‘nikmalarini puxta

egallashi uchun qo‘shimcha shart-sharoitlar yaratish bo‘yicha chora-tadbirlarni belgilaydi va amalga oshiradi;

yoshlar uchun yangi ish o‘rinlarini yaratish, yoshlar tadbirkorligini rivojlantirish borasidagi chora-tadbirlarni monitoring qilib boradi, ularning samaradorligini oshirish bo‘yicha takliflar tayyorlaydi;

yoshlar tadbirkorligi sohasida forum, tadbir va yarmarkalar o‘tkazadi, yosh tadbirkorlarning xalqaro forum va yarmarkalardagi ishtirokini ta’minlaydi, joylardagi ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish tashkilotlariga biznes sayohatlar tashkil etadi;

tadbirkorlik yo‘nalishlari bo‘yicha biznesni yo‘lga qo‘yishdan daromad olishgacha bo‘lgan masalalarni o‘rgatishga qaratilgan masofaviy o‘quv mashg‘ulotlari o‘tkazilishi va qo‘llanmalar yaratilishini ta’minlaydi;

yoshlarning tadbirkorlik faoliyatida yuzaga kelayotgan muammolarni, yoshlar ishsizligi sabablarini o‘rganadi va ularni bartaraf etish bo‘yicha takliflar ishlab chiqadi;

yoshlar, ayniqsa, yosh oilalarni tadbirkorlik va hunarmandchilikka jalb etish, yoshlarning o‘zini o‘zi band qilish, jumladan, frilanserlik faoliyatini rivojlantirish ishlarini amalga oshiradi;

i) yoshlar ishlari sohasida xalqaro hamkorlikni yo‘lga qo‘yish va mustahkamlash, xalqaro shartnomalar tayyorlash, tuzish va bajarish haqida takliflar taqdim etish sohasida:

yoshlar o‘rtasida xalqaro intellektual, sport, madaniy va boshqa sohalardagi aloqalarni mustahkamlash, bu borada konferensiya, ko‘rgazmalar, ijodiy safarlar tashkil etish, xalqaro va respublika miqyosida o‘tkaziladigan tanlovlar, festivallar va boshqa tadbirlarda iqtidorli va iste’dodli yoshlar ishtirokini ta’minlashga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshiradi;

ilg‘or xalqaro tajriba asosida O‘zbekistonda yoshlar siyosati samaradorligini baholash va mavjud muammolarni bartaraf etishga qaratilgan tizimli ishlarni amalga oshiradi;

xorijda mehnat qilayotgan va tahsil olayotgan yoshlar bilan muloqotlar olib boradi, ularning huquq va erkinliklarini ta’minlashga qaratilgan tizimli ishlarni qo‘llab-quvvatlash maqsadida takliflar tayyorlaydi hamda bu borada vakolatli organlar bilan hamkorlik qiladi;

j) normativ-huquqiy hujjatlar va texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlarning ishlab chiqilishi va tasdiqlanishini tashkil etish sohasida:

ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturlari va normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini ishlab chiqish, tegishli takliflar va loyihalarni tayyorlashda ishtirok etadi, shuningdek ularni ko‘rib chiqish uchun vakolatli davlat organlariga kiritadi;

ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturlari va normativ-huquqiy hujjatlarning ro‘yobga chiqarilishi ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirishda ishtirok

etadi, uning yakunlari bo‘yicha takliflar tayyorlaydi hamda ularni vakolatli davlat organlariga kiritadi.

4-bob. Boshqarmaning huquqlari

11. Boshqarma quyidagi huquqlarga ega:

yoshlarga oid qonunchilik hujjatlarining ijro etilishini, shu jumladan, hududlarda yoshlarning huquq va qonuniy manfaatlariga rioya etilishini o‘rganish va tahlil qilish;

o‘z vakolatlariga kiruvchi masalalar yuzasidan davlat organlari va tashkilotlarining hududiy bo‘linmalaridan statistik, tahliliy materiallar, xulosalar va boshqa ma’lumotlarni so‘rash va olish;

o‘z vakolatlari doirasida yoshlar, jumladan, tarbiya muassasalarini tamomlagan yetim va ota-onasi qaramog‘idan mahrum bo‘lgan yoshlarning huquqlarini himoya qilish hamda yoshlar to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlari buzilishi holatlarini bartaraf etish yuzasidan tashkiliy-huquqiy shaklidan qat’i nazar tashkilotlar, muassasalar va korxonalarga bajarilishi majburiy bo‘lgan ko‘rsatmalar kiritish;

davlat organlari va tashkilotlari rahbarlariga yoshlar to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlari buzilishi, ularni keltirib chiqaruvchi sabab va sharoitlarni bartaraf etish bo‘yicha ko‘rib chiqilishi majburiy bo‘lgan taqdimnomalar kiritish;

o‘ziga tegishli mol-mulkni qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda tasarruf etish;

davlat organlari va tashkilotlari hududiy bo‘linmalarining yoshlar masalalari bilan bog‘liq majlislari, yig‘ilishlari, hay’atlarida ishtirok etish;

axborot-tahliliy materiallarni tayyorlash va dasturiy hujjatlarni ishlab chiqish uchun davlat boshqaruvi organlari va xo‘jalik birlashmalarining hududiy bo‘limlari, shuningdek, ilmiy tashkilotlarning yuqori malakali mutaxassislarini jalb qilish.

5-bob. Boshqarma boshqaruvi

12. Boshqarmani boshqarish boshliq tomonidan amalga oshiriladi. Boshliq Agentlik direktori tomonidan lavozimiga tayinlanadi va lavozimidan ozod etiladi.

13. Boshqarma boshlig‘ining o‘rinbosarini lavozimiga tayinlash, lavozimidan ozod etish, shu jumladan, Boshqarma boshlig‘i o‘rinbosari vazifasini vaqtincha bajaruvchi etib tayinlash Agentlik direktori bilan kelishilgan holda tegishli hududiy boshqarma boshlig‘ining buyrug‘i bilan amalga oshiriladi.

Boshqarma boshlig‘i o‘rinbosari boshqarma boshlig‘ining buyruqlarini o‘z vaqtida va sifatli bajarilishini ta’minlaydi hamda o‘ziga yuklatilgan topshiriq va vazifalarni bajarish uchun shaxsan javobgardir.

Boshqarma boshlig‘i bo‘lmagan vaqtda uning vakolatlari boshliq o‘rinbosari tomonidan amalga oshiriladi.

Boshqarma xodimlari qonunchilikda belgilangan tartibda boshqarma boshlig‘i tomonidan lavozimga tayinlanadi va lavozimidan ozod etiladi.

Bunda, boshqarmaning boshqaruv xodimlarini lavozimiga tayinlash, lavozimidan ozod etish, shu jumladan, vazifasini vaqtincha bajaruvchi etib tayinlash Agentlik markaziy apparati bilan kelishilgan holda tegishli hududiy boshqarma boshlig‘ining buyrug‘i bilan amalga oshiriladi.

Ushbu bandda belgilangan tartib buzilgan holda chiqarilgan buyruq Agentlik direktori tomonidan bekor qilinadi, ushbu tartibni buzgan xodimlar, shu jumladan, rahbar xodimlar intizomiy javobgarlikka tortiladi.

14. Quyidagilar boshqarma boshlig‘ining asosiy funksional majburiyatlari hisoblanadi:

boshqarma faoliyatiga umumiy rahbarlik qilish, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari, farmoyishlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari, farmoyishlari, Agentlik Hay’ati va rahbariyatining normativ-huquqiy hujjatlari, topshiriqlari va ko‘rsatmalari bilan boshqarmaga yuklangan vazifalar va funksiyalar bajarilishini tashkil etish;

boshqarma va bo‘limlar faoliyati bilan bog‘liq prognoz ko‘rsatkichlarga erishishni so‘zsiz ta’minlash bo‘yicha amaliy chora-tadbirlarni ishlab chiqish va qabul qilish;

boshqarma va bo‘limlar faoliyatini nazorat qilish va muvofiqlashtirish;

boshqarma va bo‘limlar xodimlari tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari, farmoyishlari va topshiriqlari ijrosi ta’minlanishi, ijro intizomi mustahkamlanishi bo‘yicha kompleks amaliy chora-tadbirlar amalga oshirilishi, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 10-fevraldagi “Qonunchilik hujjatlari ijrosini samarali tashkil etishda davlat boshqaruvi organlari va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari rahbarlarining shaxsiy javobgarligini kuchaytirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF–6166-son Farmoni, 2021-yil 31-maydagi “Ijro.gov.uz” ijro intizomi idoralararo yagona elektron tizimi samarali faoliyat ko‘rsatishini ta’minlashga qaratilgan qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ–5132-son qaroriga muvofiq topshiriqlarning o‘z vaqtida va sifatli bajarilishi uchun xodimlarning shaxsiy mas’uliyatini oshirish choralarini ko‘rish;

boshqarma vakolatiga kiradigan masalalar bo‘yicha buyruqlar, farmoyishlar, ko‘rsatmalar chiqarish, zarur bo‘lganda boshqa vazirliklar va idoralar bilan birgalikda tegishli qarorlar qabul qilish;

boshqarma faoliyati sohasiga kiradigan masalalar yuzasidan mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari va kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo‘yicha sektorlar bilan hamkorlik qilish;

boshqarmada kadrlarni tanlash va joy-joyiga qo‘yish, ularning professionalligi, o‘z ishini bilishi, yuksak darajadagi ishchanlik va ma’naviy-axloqiy

fazilatlarga ega bo‘lishini ta’minlash, ularning kasbiy malakasini oshirish, kadrlar zaxirasini shakllantirish choralarini ko‘rish;

boshqarma xodimlari, hududiy boshqarmalar va idoraviy mansub tashkilotlar rahbarlari bilan qonunchilikda belgilangan tartibda mehnat shartnomalarini tuzish va bekor qilish;

xodimlarning vakolatlarini belgilash, ular o‘rtasida majburiyatlarni taqsimlash, boshqarmalarni boshqarishda mas’ul xodimlarning javobgarligini belgilash;

boshqarma faoliyatini rejalashtirishni tashkil etish, har choraklik ish rejalarini tasdiqlash, ularning bajarilishi nazoratini ta’minlash;

boshqarma xodimlarini rag‘batlantirish va intizomiy javobgarlikka tortish masalalarini hal qilish, shu jumladan, ular egallab turgan lavozimda qolishi maqsadga muvofiqligiga doir masalalarni ko‘rib chiqish, ularning shaxsiy mas’uliyatini oshirish bo‘yicha muntazam choralar ko‘rish;

boshqarma xodimlarining odob-axloq qoidalari talablariga rioya qilishini ta’minlash;

“Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni talablariga muvofiq boshqarmada korrupsiya va boshqa huquqbuzarliklarning oldini olish choralarini ko‘rish, shuningdek, huquqni qo‘llash amaliyotini va qonunchilik hujjatlarini takomillashtirishga doir chora-tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirish orqali ularning sodir etilishiga ko‘maklashuvchi sabablar va shart-sharoitlarni aniqlash, tahlil qilish hamda bartaraf etish;

prognoz ko‘rsatkichlarning bajarilishini muntazam tahlil qilish hamda ushbu ko‘rsatkichlarga so‘zsiz erishishini ta’minlashga qaratilgan qo‘shimcha choralar ko‘rish bo‘yicha takliflarni Agentlikka kiritish;

boshqarma xodimlari faoliyatining samaradorligi va natijadorligini tizimli ravishda tanqidiy tahlil qilish, yig‘ilishlarda ularning shaxsiy hisobotlarini eshitish, ularning yakunlari bo‘yicha zarur chora-tadbirlarni amalga oshirish;

boshqarma xodimlari faoliyatiga oid masalalar bo‘yicha qonunchilik hujjatlarini takomillashtirish, shuningdek, davlat xizmatlari samaradorligi, sifatini oshirish va ulardan erkin foydalanish bo‘yicha takliflarni ishlab chiqish hamda ko‘rib chiqish uchun Agentlik rahbariyatiga kiritish;

boshqarma xodimlari faoliyatining samaradorligi va natijalarini tizimli ravishda tanqidiy tahlil qilish, Boshqarma yig‘ilishlarida ularning shaxsiy hisobotlarini eshitish, natijalar asosida zarur choralar ko‘rish;

jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarini ko‘rib chiqish, aholi bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri va ochiq muloqotni yo‘lga qo‘yish, muntazam ravishda shaxsan, shu jumladan, sayyor qabullar o‘tkazish;

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Xalq qabulxonalari bilan samarali hamkorlik qilish, ularning faoliyatida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash tizimini tubdan takomillashtirishga doir chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2016-yil 28-dekabrdagi

PF–4904-son Farmoniga muvofiq faol ishtirok etish, jismoniy va yuridik shaxslarning O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Virtual qabulxonasidan tushgan murojaatlarini o‘z vaqtida va to‘laqonli ko‘rib chiqish;

boshqarma xodimlariga ustamalar, qo‘shimcha to‘lovlar to‘lash, ularga moddiy yordam berish, ularni rag‘batlantirish va ularga intizomiy chora qo‘llash to‘g‘risida qaror qabul qilish, ularni davlat mukofotlari va idoraviy mukofotlar bilan taqdirlash to‘g‘risida Agentlikka takliflar kiritish;

davlat sirini yoki qonunchilik bilan qo‘riqlanadigan boshqa sirni tashkil etuvchi ma’lumotlarning himoya qilinishini ta’minlash;

mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlarida, sudlarda va tashkilotlarda Boshqarma manfaatlarini ifoda etish.

15. Boshqarma boshlig‘i:

yuklangan vazifa va funksiyalarning sifatli bajarilishini tashkil etish;

tegishli hududda yoshlarga oid qonunchilik hujjatlari, Agentlik direktori va uning o‘rinbosarlari topshiriqlari, shuningdek, o‘ziga yuklatilgan vazifa va funksiyalarning o‘z vaqtida va sifatli bajarilishi yuzasidan ta’sirchan nazoratni amalga oshirish;

tegishli hududda yoshlar sohasidagi respublikaning tegishli dasturlari va sohalarni rivojlantirish bo‘yicha dasturlari bilan o‘zaro bog‘liq holda hududlarni rivojlantirish dasturlarining belgilangan tartibda ishlab chiqilishini ta’minlash;

tegishli hududda yoshlarga oid davlat siyosatining holati to‘g‘risida Agentlikka haqqoniy tahliliy va boshqa axborotni taqdim etish yuzasidan javobgar bo‘ladi.

6-bob. Boshqarmaning faoliyatini moliyalashtirish

16. Quyidagilar Boshqarma faoliyatini moliyalashtirish manbalari hisoblanadi:

O‘zbekiston Respublikasi Davlat budjeti mablag‘lari;

jismoniy va yuridik shaxslarning homiylik xayriyalari;

xalqaro moliya institutlari, xorijiy tashkilotlarning grantlari doirasida tushadigan mablag‘lar;

qonunchilik hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa manbalar.

Boshqarma moliyaviy mablag‘laridan qonunchlik hujjatlarida belgilangan tartibda foydalaniladi.

17. Boshqarmaning budjetdan tashqari manbalar hisobiga moliyaviy ta’minlanadigan xarajatlar smetasi qonunchilikda belgilangan tartibda tasdiqlanadi.

18. Boshqarma mol-mulkini ijaraga berish O‘zbekiston Respublikasining davlat mulkini ijaraga berish to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladi.

Boshqarma O‘zbekiston Respublikasi qonunchilik hujjatlariga va ushbu nizom qoidalariga muvofiq ravishda shartnomalarni tuzish, majburiyatlar va boshqa shartlarni belgilash masalalarini mustaqil ravishda hal etadi.

19. Boshqarmaning moddiy-texnik bazasi unga tegishli bo‘lgan yer maydonlari, ma’muriy binolar, kommunikatsiya, transport vositalari va asbob-uskunalar, shuningdek, asosiy fondlar, aylanma mablag‘lar, moliyaviy resurslar va uning mustaqil balansida aks etgan boshqa moddiy qiymatliklardan iborat.

20. Boshqarmaning moddiy-texnik bazasini jihozlash va takomillashtirib borish Agentlik tomonidan belgilanadigan moddiy-texnik ta’minlashning normativlari asosida amalga oshiriladi.

21. Boshqarmaga bitta yengil avtomobil uchun limit ajratiladi.

22. Boshqarma xodimlari maqomi, mehnatga haq to‘lash, moddiy rag‘batlantirish va tibbiy xizmat ko‘rsatish shartlariga ko‘ra tegishlicha vazirliklar hududiy boshqarmalari xodimlariga tenglashtiriladi.

23. Boshqarma xodimlarining mehnatiga haq to‘lash shartlari, yillik ta’til da’vomiyligi, ijtimoiy himoya qilish choralari O‘zbekiston Respublikasining qonunchilik hujjatlari muvofiq amalga oshiriladi.

Boshqarma tomonidan amalga oshirilgan ishlarning natijadorligi, joriy qilgan, ishlab chiqqan yangilik va istiqbolli loyihalari, yuqori tashkilotlarning ko‘rsatma xatlari va topshiriqlariga muvofiq, ishdagi yutuqlari va mas’uliyatli vazifalarni bajarganligi uchun, shuningdek, jamoa shartnomalarida belgilangan tartibda qo‘shimcha rag‘batlantirish mumkin.

7-bob. Boshqarmaning buxgalteriya hisobi va hisoboti

24. Boshqarma O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligida belgilangan tartibda buxgalteriya hisobi va statistik hisobotlarni olib boradi.

Boshqarma bosh hisobchisi qonunchilikda belgilangan huquqlardan foydalanadi va majburiyatlarni bajaradi.

Boshqarma bosh hisobchisi to‘g‘ridan-to‘g‘ri boshqarma boshlig‘iga, buxgalteriya hisobini yuritish, hisobotlarni tuzish va taqdim qilish masalalari bo‘yicha esa Agentlik markaziy apparatining Moliya-iqtisod bo‘limiga bo‘ysunadi.

25. Boshqarma moliyaviy, xo‘jalik va huquqiy faoliyatini tekshirish qonunchilikda belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

8-bob. Boshqarmani qayta tashkil etish va tugatish

26. Mazkur nizomga o‘zgartirish va qo‘shimchalar Agentlik direktorining buyrug‘i bilan kiritiladi.

27. Boshqarma faoliyatini qayta tashkil etish va tugatish qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

28. Ushbu nizom talablari buzilishida aybdor bo‘lgan shaxslar qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda javobgar hisoblanadilar.

O‘zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari
agentligi direktorining 2024-yil
19-apreldagi 01/10-71-son buyrug‘iga
4-ilova

O‘zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligining Jizzax viloyati Yoshlar ishlari boshqarmasi to‘g‘risida NIZOM

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Mazkur nizom Jizzax viloyati Yoshlar ishlari boshqarmasining (keyingi o‘rinlarda – boshqarma) faoliyatini tashkil etish, boshqarmaning asosiy vazifalari va funksiyalari, huquqlari va majburiyatlari, tashkiliy tuzilmasi va boshqaruvi, boshqarma boshlig‘ining funksional vazifalari, javobgarligi, boshqarma faoliyatini baholash, hisoboti, xodimlarni moddiy rag‘batlantirish masalalarini tartibga soladi.

2. Boshqarma O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatini tubdan isloh qilish va yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2020-yil 30-iyundagi PF–6017-son Farmoni, “Yoshlar siyosati va sport sohasida davlat boshqaruv tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2024-yil 20-yanvardagi PF–18-son Farmoni, “O‘zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida” 2020-yil 30-iyundagi PQ–4768-son qarori hamda Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 11-sentabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi to‘g‘risida nizomni tasdiqlash haqida”gi 550-son qarori, shuningdek, boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlar va mazkur Nizomga asosan tashkil etilgan.

3. Boshqarma – O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 25-yanvardagi PF–14-son Farmoniga 2-ilovaga muvofiq respublika ijro etuvchi hokimiyat organ hisoblangan O‘zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi (keyingi o‘rinlarda – Agentlik deb yuritiladi) tashkiliy tuzilmasiga kiradi, o‘z faoliyati bo‘yicha Agentlikka bo‘ysunadi va hisobdor hisoblanadi.

4. Boshqarma o‘z faoliyatini O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlari, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari, farmoyishlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlari, boshqa qonunchilik hujjatlari, Agentlikning normativ-huquqiy hujjatlariga, shuningdek ushbu Nizomga asosan amalga oshiradi.

5. Boshqarma Agentlikning yuridik shaxs maqomiga ega bo‘lgan mustaqil tuzilmasi bo‘lib, operativ boshqaruvida o‘ziga xos maxsus mol-mulkka ega va ushbu mol-mulk bo‘yicha o‘z majburiyatlariga muvofiq javob beradi, o‘z nomidan mol-mulk sotib olishi va mulkiy hamda nomulkiy huquqlarni amalga oshirish, zimmasiga majburiyat olish huquqiga ega, sudda da’vogar va javobgar sifatida qatnashadi.

Boshqarma o‘z balansiga, g‘aznachilikda ochilgan hisob raqamlariga, O‘zbekiston Respublikasining Davlat gerbi tasviri tushirilgan va o‘z nomi yozilgan muhrga hamda o‘z faoliyati uchun zarur boshqa belgilar va rekvizitlarga ega bo‘ladi.

Boshqarmaning nizomi va tashkiliy tuzilmasi Agentlik direktori tomonidan tasdiqlanadi.

6. Boshqarmaning rasmiy nomi:

davlat tilida – Jizzax viloyati Yoshlar ishlari boshqarmasi;

rus tilida – Управление по делам молодежи Джизакской области;

ingliz tilida – Department of Youth affairs of Jizzak region;

7. Boshqarmaning yuridik manzili (pochta manzili): Jizzax shahar, Zargarlik MFY, I.Karimov ko‘chasi 169-uy.

2-bob. Boshqarmaning tuzilmasi

8. Boshqarma tizimiga yuridik shaxs tashkil etgan holda faoliyat yurituvchi Jizzax viloyatidagi tuman (shahar) yoshlar ishlari bo‘limlari (keyingi o‘rinlarda – bo‘limlar) kiradi.

3-bob. Boshqarmaning asosiy vazifalari va funksiyalari

9. Quyidagilar boshqarmaning asosiy vazifalari hisoblanadi:

yoshlar bilan bog‘liq soha va yo‘nalishlarda yagona davlat siyosatini, strategik yo‘nalishlar va davlat dasturlarini ishlab chiqish hamda amalga oshirishda ishtirok etish;

mahallalarda yoshlar bilan ishlashning yangicha boshqaruv mexanizmlarini joriy etish, ular bilan ishlashning vertikal tizimini yaratish, yoshlar muammolarini bevosita mahallalarda hal etish bo‘yicha belgilangan vazifalarni samarali amalga oshirish;

yoshlarni Vatanga sadoqat, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash, ularning sog‘lig‘iga zarar yetkazuvchi axborotdan himoya qilish, o‘sib kelayotgan yosh avlodni ilm-fan va innovatsiyalarga keng jalb etish;

yoshlarning huquq va erkinliklari, qonuniy manfaatlarini himoya qilish, yoshlar o‘rtasida huquqbuzarliklar va jinoyatchilik profilaktikasiga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirishda ishtirok etish;

yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirish jarayonida nodavlat notijorat tashkilotlar va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari bilan hamkorlik qilish;

yoshlarning intellektual rivojlanishga bo‘lgan intilishlarini qo‘llab-quvvatlash va bu sohadagi ishlarni muvofiqlashtirib borish;

yoshlarni kichik biznes va xususiy tadbirkorlikka keng jalb etish, zamonaviy kasb-hunar, raqamli iqtisodiyot ko‘nikmalarini puxta egallashlari uchun qo‘shimcha shart-sharoitlar yaratish, ularni ish bilan ta’minlash jarayonlariga ko‘maklashish;

yoshlar ishlari sohasida xalqaro hamkorlikni yo‘lga qo‘yish va mustahkamlash, xalqaro shartnomalar tayyorlash, tuzish va bajarish haqida takliflar taqdim etish;

normativ-huquqiy hujjatlar va texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlarning ishlab chiqilishida ishtirok etish.

10. Boshqarma o‘ziga yuklangan vazifalarga muvofiq quyidagi funksiyalarni amalga oshiradi:

a) yoshlar bilan bog‘liq soha va yo‘nalishlarda yagona davlat siyosatini, strategik yo‘nalishlar va davlat dasturlarini ishlab chiqish hamda amalga oshirishda ishtirok etish sohasida:

O‘zbekiston Respublikasining yoshlarga oid yagona davlat siyosati asoslarini, mamlakatda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarga muvofiq o‘rta va uzoq muddatga mo‘ljallangan vazifalarni ishlab chiqishda ishtirok etadi;

yoshlarga oid davlat siyosatining ijrosini ta’minlaydi, davlat organlari va tashkilotlarining ushbu yo‘nalishdagi faoliyatini muvofiqlashtiradi hamda hamkorligini ta’minlaydi;

yoshlar bilan bog‘liq soha va yo‘nalishlarda amalga oshirilayotgan davlat dasturlari hamda loyihalarning samarali ijro etilishi monitoringini olib boradi;

demokratik islohotlarni chuqurlashtirish, fuqarolik jamiyatini barpo etish jarayonlarida yoshlar rolini oshirish ishlarini tashkil etadi;

b) mahallalarda yoshlar bilan ishlashning yangicha boshqaruv mexanizmlarini joriy etish, ular bilan ishlashning vertikal tizimini yaratish, yoshlar muammolarini bevosita mahallalarda hal etish bo‘yicha belgilangan vazifalarni samarali amalga oshirish sohasida:

“Yoshlar balansi”ni shakllantirish, yoshlar to‘g‘risidagi zarur ma’lumotlarni “Yoshlar daftari” va “Yoshlar portali” elektron platformalariga kiritib borilishi, ular bilan samarali ish tashkil qilinishini ta’minlaydi;

mahallalarda yoshlarning bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etish, milliy xalq o‘yinlari va sport turlarini yoshlar orasida ommalashtirish, Besh muhim tashabbus loyihalari, yoshlar festivallari va boshqa madaniy-ma’rifiy tadbirlarni amalga oshirishni ta’minlaydi;

yoshlarning ijtimoiy faolligini oshirish, iqtidori, iste’dodi va tashabbuslarini rag‘batlantirish hamda hayotda o‘z o‘rnini topishlariga ko‘maklashish bilan bog‘liq chora-tadbirlarni amalga oshiradi;

yoshlarning bo‘sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish maqsadida ularning fikr-mulohazalarini o‘rganishga qaratilgan ijtimoiy so‘rovlar o‘tkazadi va natijasi bo‘yicha tegishli tadbirlarni belgilaydi;

d) yoshlarni Vatanga sadoqat, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash, ularning sog‘lig‘iga zarar yetkazuvchi axborotdan himoya

qilish, o‘sib kelayotgan yosh avlodni ilm-fan va innovatsiyalarga keng jalb etish sohasida:

yosh avlodni Vatan manfaati yo‘lida birlashtirish, mamlakatimiz tarixini va milliy qadriyatlarni hurmat qilish ruhida tarbiyalash, diniy bag‘rikenglik va insoniylik tuyg‘ularini shakllantirish choralarini ko‘radi;

o‘sib kelayotgan yosh avlodni ma’nan va jismonan barkamol voyaga yetkazish, ularni sog‘lom turmush tarziga jalb etish bo‘yicha keng ko‘lamli tashkiliy, targ‘ibot-tashviqot ishlarini amalga oshiradi;

yoshlarning ilm-fanni egallashga bo‘lgan intilishlarini qo‘llab-quvvatlash, innovatsion faoliyat bilan shug‘ullanishlari uchun shart-sharoitlar yaratish bo‘yicha zarur choralar ko‘radi;

yoshlarning axborot borasidagi xavfsizligi kafolatlarini yaratish, axborot vositasida qonunga xilof ravishda yoshlarga ruhiy ta’sir ko‘rsatilishidan hamda ularning sog‘lig‘iga zarar yetkazuvchi axborotdan himoya qilishda zarur tadbirlarni amalga oshiradi;

yoshlar ongida milliy g‘ururni shakllantirish hamda mustahkamlashga xizmat qiladigan publitsistik, chizma, foto va video materiallarni tayyorlaydi hamda targ‘ib qilish choralarini ko‘radi, xorijiy ommaviy axborot vositalarida turli materiallar joylashtirish orqali mamlakatimiz ijobiy imijini shakllantiradi;

bolalarning har tomonlama, uyg‘un rivojlanishiga hamda milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalanishiga ko‘maklashuvchi axborotdan erkin foydalanish, ularning sog‘lig‘iga zarar yetkazuvchi axborotdan himoya qilishni ta’minlashga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshiradi va ushbu yo‘nalishda yakka tartibdagi profilaktika ishlarini amalga oshirishda ishtirok etadi;

bolalarning axborotga oid va huquqiy madaniyatini yuksaltirishga, shuningdek, ma’naviy-axloqiy tarbiyasiga doir faoliyatda ishtirok etadi;

bolalarni ularning sog‘lig‘iga zarar yetkazuvchi axborotdan himoya qilishga doir faoliyatni amalga oshiruvchi hamda ushbu faoliyatda ishtirok etuvchi boshqa organlar va tashkilotlar bilan hamkorlik qiladi;

e) yoshlarning huquq va erkinliklari, qonuniy manfaatlarini himoya qilish, yoshlar o‘rtasida huquqbuzarliklar va jinoyatchilik profilaktikasiga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirishda ishtirok etish sohasida:

yoshlarning huquqlari va erkinliklari buzilishi to‘g‘risidagi murojaatlarini ko‘rib chiqadi, ularning buzilgan huquqlarini tiklash bo‘yicha qonunchilik hujjatlariga muvofiq choralar ko‘radi;

yoshlarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, ularning o‘z iqtidor va iste’dodlarini to‘laqonli namoyon etishlari hamda imkoniyatlaridan to‘liq foydalanishlariga to‘sqinlik qiluvchi omillarni aniqlash va bartaraf etish, yoshlar o‘rtasida huquqbuzarlik va jinoyatchilikning oldini olishda, shu jumladan, huquqbuzarliklarning maxsus profilaktikasiga, yoshlar o‘rtasida huquqbuzarlik va jinoyatchilikni keskin kamaytirishga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirishda ishtirok etadi;

yoshlarning huquqiy madaniyatini oshirishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlarni ishlab chiqadi va amalga oshiradi, shu jumladan yoshlar o‘rtasida jamiyatda huquqiy ongni yuksaltirishga va qonuniylikni mustahkamlashga, shuningdek korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirishga qaratilgan huquqiy targ‘ibot bo‘yicha faoliyatda ishtirok etadi;

yoshlar o‘rtasida huquqbuzarliklar sodir etilishiga imkon berayotgan sabablar va shart-sharoitlarni aniqlashda hamda bartaraf etishda ko‘maklashadi;

f) yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirish jarayonida nodavlat notijorat tashkilotlar va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari bilan hamkorlik qilish sohasida:

yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirishga qaratilgan davlat dasturlari hamda loyihalarni ishlab chiqish va amalga oshirishda nodavlat notijorat tashkilotlar hamda fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari bilan hamkorlik o‘rnatadi;

nodavlat notijorat tashkilotlar va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlariga yoshlarga oid dasturlar va loyihalarni amalga oshirishda g‘oyaviy-metodik, ilmiy-amaliy va tashkiliy-huquqiy jihatdan ko‘maklashadi;

nodavlat notijorat tashkilotlar va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari tomonidan yoshlarga oid muammoli masalalar, shu jumladan, ularni hal etish bo‘yicha ishlab chiqilgan takliflarni o‘rganadi va tahlillar asosida tegishli muammolarni bartaraf etish bo‘yicha amaliy choralar ko‘radi;

yoshlar tadbirkorligini rivojlantirish, ularning bandligini ta’minlash, axborot-kommunikatsiya, innovatsion texnologiyalarni joriy etish, madaniyat, san’at, kitobxonlikni rivojlantirish, ekologiya va boshqa sohalarda nodavlat notijorat tashkilotlar bilan hamkorlikda loyihalarni ishlab chiqadi va amalga oshiradi;

g) yoshlarning intellektual rivojlanishga bo‘lgan intilishlarini qo‘llab-quvvatlash va bu sohadagi ishlarni muvofiqlashtirib borish sohasida:

yoshlarning intellektual jihatdan kamol topishini va ma’naviy rivojlanishini ta’minlash bilan bog‘liq chora-tadbirlarni amalga oshiradi;

yoshlar o‘rtasida intellektual o‘yinlar, notiqlik musobaqalari, chet tillarda munozara va uchrashuvlar o‘tkazadi;

yoshlar o‘rtasida intellektual o‘yinlarni rivojlantirish hamda ommalashtirishga qaratilgan loyihalarni qo‘llab-quvvatlash choralarini ko‘radi;

intellektual o‘yinlar va ulardagi iqtidorli ishtirokchilar haqidagi ma’lumotlarning elektron platformaga kiritilishini ta’minlaydi va intellektual o‘yinlar natijalarini ommaviy axborot vositalarida yoritib boradi;

h) yoshlarni kichik biznes va xususiy tadbirkorlikka keng jalb etish, zamonaviy kasb-hunar, raqamli iqtisodiyot ko‘nikmalarini puxta egallashlari uchun qo‘shimcha shart-sharoitlar yaratish, ularni ish bilan ta’minlash jarayonlariga ko‘maklashish sohasida:

yoshlarni tadbirkorlikka yo‘naltirish, kasb-hunarga o‘qitish va ularning bandligini ta’minlash, shuningdek, raqamli iqtisodiyot ko‘nikmalarini puxta

egallashi uchun qo‘shimcha shart-sharoitlar yaratish bo‘yicha chora-tadbirlarni belgilaydi va amalga oshiradi;

yoshlar uchun yangi ish o‘rinlarini yaratish, yoshlar tadbirkorligini rivojlantirish borasidagi chora-tadbirlarni monitoring qilib boradi, ularning samaradorligini oshirish bo‘yicha takliflar tayyorlaydi;

yoshlar tadbirkorligi sohasida forum, tadbir va yarmarkalar o‘tkazadi, yosh tadbirkorlarning xalqaro forum va yarmarkalardagi ishtirokini ta’minlaydi, joylardagi ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish tashkilotlariga biznes sayohatlar tashkil etadi;

tadbirkorlik yo‘nalishlari bo‘yicha biznesni yo‘lga qo‘yishdan daromad olishgacha bo‘lgan masalalarni o‘rgatishga qaratilgan masofaviy o‘quv mashg‘ulotlari o‘tkazilishi va qo‘llanmalar yaratilishini ta’minlaydi;

yoshlarning tadbirkorlik faoliyatida yuzaga kelayotgan muammolarni, yoshlar ishsizligi sabablarini o‘rganadi va ularni bartaraf etish bo‘yicha takliflar ishlab chiqadi;

yoshlar, ayniqsa, yosh oilalarni tadbirkorlik va hunarmandchilikka jalb etish, yoshlarning o‘zini o‘zi band qilish, jumladan, frilanserlik faoliyatini rivojlantirish ishlarini amalga oshiradi;

i) yoshlar ishlari sohasida xalqaro hamkorlikni yo‘lga qo‘yish va mustahkamlash, xalqaro shartnomalar tayyorlash, tuzish va bajarish haqida takliflar taqdim etish sohasida:

yoshlar o‘rtasida xalqaro intellektual, sport, madaniy va boshqa sohalardagi aloqalarni mustahkamlash, bu borada konferensiya, ko‘rgazmalar, ijodiy safarlar tashkil etish, xalqaro va respublika miqyosida o‘tkaziladigan tanlovlar, festivallar va boshqa tadbirlarda iqtidorli va iste’dodli yoshlar ishtirokini ta’minlashga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshiradi;

ilg‘or xalqaro tajriba asosida O‘zbekistonda yoshlar siyosati samaradorligini baholash va mavjud muammolarni bartaraf etishga qaratilgan tizimli ishlarni amalga oshiradi;

xorijda mehnat qilayotgan va tahsil olayotgan yoshlar bilan muloqotlar olib boradi, ularning huquq va erkinliklarini ta’minlashga qaratilgan tizimli ishlarni qo‘llab-quvvatlash maqsadida takliflar tayyorlaydi hamda bu borada vakolatli organlar bilan hamkorlik qiladi;

j) normativ-huquqiy hujjatlar va texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlarning ishlab chiqilishi va tasdiqlanishini tashkil etish sohasida:

ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturlari va normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini ishlab chiqish, tegishli takliflar va loyihalarni tayyorlashda ishtirok etadi, shuningdek ularni ko‘rib chiqish uchun vakolatli davlat organlariga kiritadi;

ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturlari va normativ-huquqiy hujjatlarning ro‘yobga chiqarilishi ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirishda ishtirok

etadi, uning yakunlari bo‘yicha takliflar tayyorlaydi hamda ularni vakolatli davlat organlariga kiritadi.

4-bob. Boshqarmaning huquqlari

11. Boshqarma quyidagi huquqlarga ega:

yoshlarga oid qonunchilik hujjatlarining ijro etilishini, shu jumladan, hududlarda yoshlarning huquq va qonuniy manfaatlariga rioya etilishini o‘rganish va tahlil qilish;

o‘z vakolatlariga kiruvchi masalalar yuzasidan davlat organlari va tashkilotlarining hududiy bo‘linmalaridan statistik, tahliliy materiallar, xulosalar va boshqa ma’lumotlarni so‘rash va olish;

o‘z vakolatlari doirasida yoshlar, jumladan, tarbiya muassasalarini tamomlagan yetim va ota-onasi qaramog‘idan mahrum bo‘lgan yoshlarning huquqlarini himoya qilish hamda yoshlar to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlari buzilishi holatlarini bartaraf etish yuzasidan tashkiliy-huquqiy shaklidan qat’i nazar tashkilotlar, muassasalar va korxonalarga bajarilishi majburiy bo‘lgan ko‘rsatmalar kiritish;

davlat organlari va tashkilotlari rahbarlariga yoshlar to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlari buzilishi, ularni keltirib chiqaruvchi sabab va sharoitlarni bartaraf etish bo‘yicha ko‘rib chiqilishi majburiy bo‘lgan taqdimnomalar kiritish;

o‘ziga tegishli mol-mulkni qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda tasarruf etish;

davlat organlari va tashkilotlari hududiy bo‘linmalarining yoshlar masalalari bilan bog‘liq majlislari, yig‘ilishlari, hay’atlarida ishtirok etish;

axborot-tahliliy materiallarni tayyorlash va dasturiy hujjatlarni ishlab chiqish uchun davlat boshqaruvi organlari va xo‘jalik birlashmalarining hududiy bo‘limlari, shuningdek, ilmiy tashkilotlarning yuqori malakali mutaxassislarini jalb qilish.

5-bob. Boshqarma boshqaruvi

12. Boshqarmani boshqarish boshliq tomonidan amalga oshiriladi. Boshliq Agentlik direktori tomonidan lavozimiga tayinlanadi va lavozimidan ozod etiladi.

13. Boshqarma boshlig‘ining o‘rinbosarini lavozimiga tayinlash, lavozimidan ozod etish, shu jumladan, Boshqarma boshlig‘i o‘rinbosari vazifasini vaqtincha bajaruvchi etib tayinlash Agentlik direktori bilan kelishilgan holda tegishli hududiy boshqarma boshlig‘ining buyrug‘i bilan amalga oshiriladi.

Boshqarma boshlig‘i o‘rinbosari boshqarma boshlig‘ining buyruqlarini o‘z vaqtida va sifatli bajarilishini ta’minlaydi hamda o‘ziga yuklatilgan topshiriq va vazifalarni bajarish uchun shaxsan javobgardir.

Boshqarma boshlig‘i bo‘lmagan vaqtda uning vakolatlari boshliq o‘rinbosari tomonidan amalga oshiriladi.

Boshqarma xodimlari qonunchilikda belgilangan tartibda boshqarma boshlig‘i tomonidan lavozimga tayinlanadi va lavozimidan ozod etiladi.

Bunda, boshqarmaning boshqaruv xodimlarini lavozimiga tayinlash, lavozimidan ozod etish, shu jumladan, vazifasini vaqtincha bajaruvchi etib tayinlash Agentlik markaziy apparati bilan kelishilgan holda tegishli hududiy boshqarma boshlig‘ining buyrug‘i bilan amalga oshiriladi.

Ushbu bandda belgilangan tartib buzilgan holda chiqarilgan buyruq Agentlik direktori tomonidan bekor qilinadi, ushbu tartibni buzgan xodimlar, shu jumladan, rahbar xodimlar intizomiy javobgarlikka tortiladi.

14. Quyidagilar boshqarma boshlig‘ining asosiy funksional majburiyatlari hisoblanadi:

boshqarma faoliyatiga umumiy rahbarlik qilish, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari, farmoyishlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari, farmoyishlari, Agentlik Hay’ati va rahbariyatining normativ-huquqiy hujjatlari, topshiriqlari va ko‘rsatmalari bilan boshqarmaga yuklangan vazifalar va funksiyalar bajarilishini tashkil etish;

boshqarma va bo‘limlar faoliyati bilan bog‘liq prognoz ko‘rsatkichlarga erishishni so‘zsiz ta’minlash bo‘yicha amaliy chora-tadbirlarni ishlab chiqish va qabul qilish;

boshqarma va bo‘limlar faoliyatini nazorat qilish va muvofiqlashtirish;

boshqarma va bo‘limlar xodimlari tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari, farmoyishlari va topshiriqlari ijrosi ta’minlanishi, ijro intizomi mustahkamlanishi bo‘yicha kompleks amaliy chora-tadbirlar amalga oshirilishi, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 10-fevraldagi “Qonunchilik hujjatlari ijrosini samarali tashkil etishda davlat boshqaruvi organlari va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari rahbarlarining shaxsiy javobgarligini kuchaytirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF–6166-son Farmoni, 2021-yil 31-maydagi “Ijro.gov.uz” ijro intizomi idoralararo yagona elektron tizimi samarali faoliyat ko‘rsatishini ta’minlashga qaratilgan qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ–5132-son qaroriga muvofiq topshiriqlarning o‘z vaqtida va sifatli bajarilishi uchun xodimlarning shaxsiy mas’uliyatini oshirish choralarini ko‘rish;

boshqarma vakolatiga kiradigan masalalar bo‘yicha buyruqlar, farmoyishlar, ko‘rsatmalar chiqarish, zarur bo‘lganda boshqa vazirliklar va idoralar bilan birgalikda tegishli qarorlar qabul qilish;

boshqarma faoliyati sohasiga kiradigan masalalar yuzasidan mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari va kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo‘yicha sektorlar bilan hamkorlik qilish;

boshqarmada kadrlarni tanlash va joy-joyiga qo‘yish, ularning professionalligi, o‘z ishini bilishi, yuksak darajadagi ishchanlik va ma’naviy-axloqiy

fazilatlarga ega bo‘lishini ta’minlash, ularning kasbiy malakasini oshirish, kadrlar zaxirasini shakllantirish choralarini ko‘rish;

boshqarma xodimlari, hududiy boshqarmalar va idoraviy mansub tashkilotlar rahbarlari bilan qonunchilikda belgilangan tartibda mehnat shartnomalarini tuzish va bekor qilish;

xodimlarning vakolatlarini belgilash, ular o‘rtasida majburiyatlarni taqsimlash, boshqarmalarni boshqarishda mas’ul xodimlarning javobgarligini belgilash;

boshqarma faoliyatini rejalashtirishni tashkil etish, har choraklik ish rejalarini tasdiqlash, ularning bajarilishi nazoratini ta’minlash;

boshqarma xodimlarini rag‘batlantirish va intizomiy javobgarlikka tortish masalalarini hal qilish, shu jumladan, ular egallab turgan lavozimda qolishi maqsadga muvofiqligiga doir masalalarni ko‘rib chiqish, ularning shaxsiy mas’uliyatini oshirish bo‘yicha muntazam choralar ko‘rish;

boshqarma xodimlarining odob-axloq qoidalari talablariga rioya qilishini ta’minlash;

“Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni talablariga muvofiq boshqarmada korrupsiya va boshqa huquqbuzarliklarning oldini olish choralarini ko‘rish, shuningdek, huquqni qo‘llash amaliyotini va qonunchilik hujjatlarini takomillashtirishga doir chora-tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirish orqali ularning sodir etilishiga ko‘maklashuvchi sabablar va shart-sharoitlarni aniqlash, tahlil qilish hamda bartaraf etish;

prognoz ko‘rsatkichlarning bajarilishini muntazam tahlil qilish hamda ushbu ko‘rsatkichlarga so‘zsiz erishishini ta’minlashga qaratilgan qo‘shimcha choralar ko‘rish bo‘yicha takliflarni Agentlikka kiritish;

boshqarma xodimlari faoliyatining samaradorligi va natijadorligini tizimli ravishda tanqidiy tahlil qilish, yig‘ilishlarda ularning shaxsiy hisobotlarini eshitish, ularning yakunlari bo‘yicha zarur chora-tadbirlarni amalga oshirish;

boshqarma xodimlari faoliyatiga oid masalalar bo‘yicha qonunchilik hujjatlarini takomillashtirish, shuningdek, davlat xizmatlari samaradorligi, sifatini oshirish va ulardan erkin foydalanish bo‘yicha takliflarni ishlab chiqish hamda ko‘rib chiqish uchun Agentlik rahbariyatiga kiritish;

boshqarma xodimlari faoliyatining samaradorligi va natijalarini tizimli ravishda tanqidiy tahlil qilish, Boshqarma yig‘ilishlarida ularning shaxsiy hisobotlarini eshitish, natijalar asosida zarur choralar ko‘rish;

jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarini ko‘rib chiqish, aholi bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri va ochiq muloqotni yo‘lga qo‘yish, muntazam ravishda shaxsan, shu jumladan, sayyor qabullar o‘tkazish;

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Xalq qabulxonalari bilan samarali hamkorlik qilish, ularning faoliyatida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash tizimini tubdan takomillashtirishga doir chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2016-yil 28-dekabrdagi

PF–4904-son Farmoniga muvofiq faol ishtirok etish, jismoniy va yuridik shaxslarning O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Virtual qabulxonasidan tushgan murojaatlarini o‘z vaqtida va to‘laqonli ko‘rib chiqish;

boshqarma xodimlariga ustamalar, qo‘shimcha to‘lovlar to‘lash, ularga moddiy yordam berish, ularni rag‘batlantirish va ularga intizomiy chora qo‘llash to‘g‘risida qaror qabul qilish, ularni davlat mukofotlari va idoraviy mukofotlar bilan taqdirlash to‘g‘risida Agentlikka takliflar kiritish;

davlat sirini yoki qonunchilik bilan qo‘riqlanadigan boshqa sirni tashkil etuvchi ma’lumotlarning himoya qilinishini ta’minlash;

mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlarida, sudlarda va tashkilotlarda Boshqarma manfaatlarini ifoda etish.

15. Boshqarma boshlig‘i:

yuklangan vazifa va funksiyalarning sifatli bajarilishini tashkil etish;

tegishli hududda yoshlarga oid qonunchilik hujjatlari, Agentlik direktori va uning o‘rinbosarlari topshiriqlari, shuningdek, o‘ziga yuklatilgan vazifa va funksiyalarning o‘z vaqtida va sifatli bajarilishi yuzasidan ta’sirchan nazoratni amalga oshirish;

tegishli hududda yoshlar sohasidagi respublikaning tegishli dasturlari va sohalarni rivojlantirish bo‘yicha dasturlari bilan o‘zaro bog‘liq holda hududlarni rivojlantirish dasturlarining belgilangan tartibda ishlab chiqilishini ta’minlash;

tegishli hududda yoshlarga oid davlat siyosatining holati to‘g‘risida Agentlikka haqqoniy tahliliy va boshqa axborotni taqdim etish yuzasidan javobgar bo‘ladi.

6-bob. Boshqarmaning faoliyatini moliyalashtirish

16. Quyidagilar Boshqarma faoliyatini moliyalashtirish manbalari hisoblanadi:

O‘zbekiston Respublikasi Davlat budjeti mablag‘lari;

jismoniy va yuridik shaxslarning homiylik xayriyalari;

xalqaro moliya institutlari, xorijiy tashkilotlarning grantlari doirasida tushadigan mablag‘lar;

qonunchilik hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa manbalar.

Boshqarma moliyaviy mablag‘laridan qonunchlik hujjatlarida belgilangan tartibda foydalaniladi.

17. Boshqarmaning budjetdan tashqari manbalar hisobiga moliyaviy ta’minlanadigan xarajatlar smetasi qonunchilikda belgilangan tartibda tasdiqlanadi.

18. Boshqarma mol-mulkini ijaraga berish O‘zbekiston Respublikasining davlat mulkini ijaraga berish to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladi.

Boshqarma O‘zbekiston Respublikasi qonunchilik hujjatlariga va ushbu nizom qoidalariga muvofiq ravishda shartnomalarni tuzish, majburiyatlar va boshqa shartlarni belgilash masalalarini mustaqil ravishda hal etadi.

19. Boshqarmaning moddiy-texnik bazasi unga tegishli bo‘lgan yer maydonlari, ma’muriy binolar, kommunikatsiya, transport vositalari va asbob-uskunalar, shuningdek, asosiy fondlar, aylanma mablag‘lar, moliyaviy resurslar va uning mustaqil balansida aks etgan boshqa moddiy qiymatliklardan iborat.

20. Boshqarmaning moddiy-texnik bazasini jihozlash va takomillashtirib borish Agentlik tomonidan belgilanadigan moddiy-texnik ta’minlashning normativlari asosida amalga oshiriladi.

21. Boshqarmaga bitta yengil avtomobil uchun limit ajratiladi.

22. Boshqarma xodimlari maqomi, mehnatga haq to‘lash, moddiy rag‘batlantirish va tibbiy xizmat ko‘rsatish shartlariga ko‘ra tegishlicha vazirliklar hududiy boshqarmalari xodimlariga tenglashtiriladi.

23. Boshqarma xodimlarining mehnatiga haq to‘lash shartlari, yillik ta’til da’vomiyligi, ijtimoiy himoya qilish choralari O‘zbekiston Respublikasining qonunchilik hujjatlari muvofiq amalga oshiriladi.

Boshqarma tomonidan amalga oshirilgan ishlarning natijadorligi, joriy qilgan, ishlab chiqqan yangilik va istiqbolli loyihalari, yuqori tashkilotlarning ko‘rsatma xatlari va topshiriqlariga muvofiq, ishdagi yutuqlari va mas’uliyatli vazifalarni bajarganligi uchun, shuningdek, jamoa shartnomalarida belgilangan tartibda qo‘shimcha rag‘batlantirish mumkin.

7-bob. Boshqarmaning buxgalteriya hisobi va hisoboti

24. Boshqarma O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligida belgilangan tartibda buxgalteriya hisobi va statistik hisobotlarni olib boradi.

Boshqarma bosh hisobchisi qonunchilikda belgilangan huquqlardan foydalanadi va majburiyatlarni bajaradi.

Boshqarma bosh hisobchisi to‘g‘ridan-to‘g‘ri boshqarma boshlig‘iga, buxgalteriya hisobini yuritish, hisobotlarni tuzish va taqdim qilish masalalari bo‘yicha esa Agentlik markaziy apparatining Moliya-iqtisod bo‘limiga bo‘ysunadi.

25. Boshqarma moliyaviy, xo‘jalik va huquqiy faoliyatini tekshirish qonunchilikda belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

8-bob. Boshqarmani qayta tashkil etish va tugatish

26. Mazkur nizomga o‘zgartirish va qo‘shimchalar Agentlik direktorining buyrug‘i bilan kiritiladi.

27. Boshqarma faoliyatini qayta tashkil etish va tugatish qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

28. Ushbu nizom talablari buzilishida aybdor bo‘lgan shaxslar qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda javobgar hisoblanadilar.